

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**«TABIIYOT FANLARI» FAKULTETI
«GEOGRAFIYA VA UNI O'QITISH METODIKASI» KAFEDRASI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Fakultet dekani

_____ E.R.Yuzlikayeva

«_____» _____ 2014 yil

5140500-«Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari» ta'lim yo'nalishi kunduzgi
bo'lim 402-guruh talabasi

JALOLOVA QUNDUZ TOLYABAEVNAning

**“Xududlarning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi va atrof – muhit muxofazasi
(Toshkent viloyati misolida)”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: «Geografiya
va uni o'qitish metodikasi»
kafedrası katta o'qituvchisi
_____ I.N.Islomov

Ilmiy maslaxatchi: «Geografiya
va uni o'qitish metodikasi»
kafedrası prof., g.f.d
_____ A.Qayumov

«Himoyaga tavsiya etilsin»

«Geografiya va uni o'qitish
metodikasi» kafedrası mudiri

_____ g.f.n. dots. N.R.Alimqulov

«_____» _____ 2014 yil

TOSHKENT – 2014 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I.BOB. TOSHKENT VILOYATINING IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI TABIIY OMILLAR.....	5
1.1. Geografik o`rin va yer yuzasining tuzilishi.....	5
1.2. Iqlim va ichki suvlar.....	14
1.3. Organik dunyosi.....	16
II.BOB. TOSHKENT VILOYATINING RIVOJLANIGA TA’SIR KO’RSATUVCHI IJTIMOY – IQTISODIY OMILLAR.....	19
2.1. Ijtimoiy – iqtisodiy omillar.....	19
2.2. Mehnat resurslari.....	32
III.BOB. TOSHKENT VILOYATINI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA MAVZUNI O’QITISH METODIKASI.....	39
3.1. Toshkent viloyati tabiatining qishloq xo’jalik tarmoqlari ta’sirida ifloslanishi.....	39
3.2. Toshkent viloyati tabiatining sanoat korxonalari ta’sirida o’zgarishi.....	43
3.3 Toshkent iqtisodiy rayoni mavzusini o’qitishda hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va atrof-muxit muxofazasi masalalariga qaratilgan muammoli dars texnologiyasi.....	50
3.4 Darsni tashkil etish bosqichlari, uni o’tkazish va natijalarni tahlil qilish.....	57
Xulosa.....	63
Adabiyotlar.....	65

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Xududlarni o'rganish katta ilmiy, madaniy va ma'rifiy ahamiyatga ega. Chunki, xududlar katta geosiyosiy, iqtisodiy, demografik, ilmiy-madaniy salohiyatga ega bo'lib, mamlakat va yurtlarning hozirgi kuni va o'tmishi, tarixi, tasnifi va taqdirini, ularning jahon hamjamiyatidagi o'rnini xududlar orqali anglash mumkin. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun turli katta-kichik xududlarning ilmiy-texnika va ishlab chiqarish imkoniyatlarini aniqlash, demografik vaziyatni yaxshilash, mehnat resurslaridan unumli foydalanish kabi muammolarni chuqur o'rganish maqsadga muvofiq. Jamiyat taraqqiyotini belgilovchi omillarni o'rganuvchi boshqa fanlar qatori iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining ham xal qilinishi lozim bo'lgan hozirgi zamon dolzarb muammolari mavjuddir. Ulardan biri ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishdir.

Ishlab chiqarishni joylashtirish uchun eng avvalo joy, yer, maydon kerak. Biroq, buning uchun har qanday joy ham to'g'ri kelavermaydi. Bu esa har bir hududning rivojlanishini geografik omillarini yetarlicha o'rganib taxlil qilishni taqozo etadi.

Xududlarning iqtisodiy o'sishni ta'minlashda turli tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy omillar ta'siri katta. Prezident I.A.Karimov bu borada shunday deydi: «O'zbekistonning hududiy makon xususiyatlari, uning jo'g'rofiy o'ri bizning ichki va tashqi siyosatimizni tanlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega... O'zbekiston bugungi kunda qo'shni davlatlar - Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston o'rtasida bog'lovchi xalqa vazifasini o'taydi. Bularning barchasi respublikaning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi, chet el investitsiyalarini jalb qilish, O'zbekistonni davlatlar o'rtasida o'zaro foydali hamkorlikning, tovarlar va kapital tranzitining o'ziga xos mintaqaviy markaziga aylantiradi.».¹

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari –T.: O'zbekiston, 1997. 227-230 betlar.

Shu o‘rinda biz Toshkent viloyatining iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutuvchi ishlab chiqarishni joylashtirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga e’tiborimizni qaratmoqchimiz.

Tadqiqot ob’ekti. Toshkent viloyatini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantiruvchi ob’ektlar.

Tadqiqot predmeti, viloyat xududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Shaharlarda sanoat va ilmiy-texnika negizini asosiy qismi mujassamlashgan. Shuning uchun shaharlar tizimini oqilona tashkil etish, hududlar bo‘ylab sanoat ishlab chiqarish va ixtisosligi darajasini ko‘tarish, uni boshqarmasini takomillashtirish, ishlab chiqarishni zarur mehnat resurslari bilan ta’minlash, serunum qishloq xo‘jalik maydonlarini saqlash. Tabiiy mineral boyliklardan samarali foydalanish kabi muhim masalalarni hal etish ehtiyoji oshib boradi.

Ishning maqsadi. Toshkent viloyatining hozirgi taraqqiyoti darajasi har tomonlama tahlil qilinganligi, mavjud imkoniyatlarni chuqur o‘rganib chiqish asosida viloyatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi ro‘rnigrognistiqboli yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat.

BMI ishida quyidagi vazifalar belgilangan va hal qilingan:

- Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi hududiy tafovutlarni aniqlash;
- Xududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy muammolari va istiqbollarni aniqlash;
- Toshkent viloyati iqtisodiyoti tarmoqlari va aholisining joylashuvida IGO‘ omilining ta’sirini o‘rganish;
- Toshkent viloyatida atrof – muhit muhofazasiga doir masalalar o‘rganish.

I.BOB. TOSHKENT VILOYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI TABIIY OMILLAR.

Hududning miqdor ko'rsatkichlari, avvalo, uning umumiy maydoni, ularning katta-kichikligi holatlarida namoyon bo'ladi. Hududning sifat ko'rsatkichlari. Mamlakatlar hududining sifat ko'rsatkichlari qatoriga ularning shakli (konfiguratsiyasi), chegaralarining ijtimoiy-siyosiy geografik xususiyatlari, mamlakatlar hududining iqtisodiy geografik o'rni (IGO') va boshqalar kiradi.

1.1. Geografik o'rin va yer yuzasining tuzilishi.

Har qanday mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy geografik jihatidan o'rganilishi uning hududi (lotincha—territorium, terra — yer, mamlakat, demakdir) va aholisi ko'rsatkichlaridan boshlanadi. Mamlakatlarning xilma-xil tabiiy resurslari—er, mineral, suv, agroiklim, o'rmon resurslari bilan ta'minlanish holatlari ko'p hollarda aynan barcha boyliklarning «onasi» hisoblanadigan hududning katta kichikligiga bog'liqdir. Jahonda tabiiy resurslarga eng boy bo'lgan Rossiya, AQSH, Kanada, Braziliya, Avstraliya, Xitoy, Qozog'iston ayni bir vaqtda hududi eng yirik mamlakatlar hamdir. To'g'ri, ayrim kichik hududli mamlakatlar ham ba'zan biron hil mineral boyliklarga ancha boy bo'lishi mumkin. Ancha kichik mamlakatlar bo'lishiga qaramasdan Quvayt, Qatar, Bahrayn, BAAning neftga, Yamayka va Surinamning boksitga, Islandiya va Yangi Zelandiyaning geotermal energiyaga boy ekanligi bunga misol bo'lishi mumkin.

Jamiyat taraqqiyotini belgilovchi omillarni o'rganuvchi boshqa fanlar qatori iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining ham xal qilinishi lozim bo'lgan hozirgi zamon dolzarb muammolari mavjuddir. Ulardan biri ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishdir.

Ishlab chiqarishni joylashtirish uchun eng avvalo joy, yer, maydon kerak. Biroq, buning uchun har qanday joy ham to'g'ri kelavermaydi. Bu esa har bir

hududning rivojlanishini geografik omillarini yetarlicha o'rganib taxlil qilishni taqozo etadi.

Shu o'rinda biz Toshkent viloyatining iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutuvchi ishlab chiqarishni joylashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga e'tiborimizni qaratmoqchimiz.

Toshkent viloyati O'zbekiston Respublikasining shimoliy-sharqiy qismida joylashgan bo'lib, Toshkent viloyati respublikamizda o'zining iqtisodiy va demografik salohiyatiga ko'ra alohida ajralib turadi. U ma'muriy jihatdan birinchilar qatorida 15 yanvar 1938 yilda tashkil topgan.

Viloyat maydoni 15,26 ming kv. km bo'lib, u mamlakatimiz umumiy hududining 3,4 foiziga tengdir. Bu yerda, 2644,4 ming kishi yoki O'zbekiston aholisining 9,0 foizi yashaydi. Demak, mintaqaning aholisi nisbiy ko'rsatkichlarda uning egallagan maydonidan ko'p.

Toshkent viloyati o'ziga xos tabiiy, iqtisodiy va siyosiy geografik o'ringa ega. U 3 ta xorijiy mamlakat bilan chegaradosh: shimolda Qozog'iston, sharqda Qirg'iziston, janubi-sharqda Tojikiston respublikalari bilan tutashgan. Respublika doirasida esa mintaqa Namangan va Sirdaryo viloyatlari bilan qo'shnihilik qiladi. Poytaxt viloyatining siyosiy geografik o'rni qaysi bir ma'noda Surxondaryo o'rniga o'xshab ketadi.

Viloyat ma'muriy jihatdan ancha murakkab tuzilmaga ega. Uning tarkibiga 14 ta qishloq tumanlari kiradi. Tumanlar o'zlarining egallagan maydoni, tashkil topgan yili, demografik xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Qishloq tumanlaridan dastlabkilari O'rtachirchiq, Yangiyo'l va Yuqorichirchiq bo'lib, ular 1926 yilda tashkil etilgan. Eng "yangi" tuman – Quyichirchiq 1973 yilda bu ma'muriy maqomga ega bo'lgan. Binobarin, aytish mumkinki, poytaxt viloyatining ichki ma'muriy tuzilishi ancha oldin shakllangan.

Qishloq tumanlari maydoni o'rtacha taxminan 1,0 ming kv. km ni tashkil etgan holda, u eng kichik Chinoz (0,34 ming kv. km) tumanidan eng yirik – Bo'stonliq (4,93 ming kv. km) tumanigacha farqlanadi; ular orasidagi nisbat 14 martaga teng. Bunday katta geografiylik koeffitsient viloyat hududining tabiiy

geografik jihatdan turli-tumanligidan, ularda ishlab chiqarish va aholini hududiy tashkil etish xususiyatlaridan darak beradi. CHindan ham, aynan tog' va tog'oldi hududlarda joylashgan Bo'stonliq va Ohangaron tumanlarining maydoni boshqalarga qaraganda keskin farq qiladi. Ushbu ikki tuman viloyat jami maydonining yarmidan ko'prog'ini yoki 53,1 foizini egallaydi. Ayni vaqtda mintaqaning quyi qismida joylashgan tumanlar hududi uncha katta emas, bevosita poytaxt – Toshkentga tutash tumanlar esa bu borada eng kichik hisoblanadi.

Tabiiy geografik nuqtai nazardan ham Toshkent viloyati ancha murakkab tuzilishga ega. Uning shimoliy, shimoli-sharqiy va janubi-sharqiy qismlari tog' va tog'oldi hududlaridan iborat. Bu yerda G'arbiy Tyanshanga qarashli Ugom, Piskom va CHotqol tog' tizmalari, janubi-sharqda Qurama tizmasi joylashgan. Eng baland joylar viloyatning chekka shimoli-sharqida bo'lib, ularning balandligi dengiz sathidan 4395-4400 metrga yetadi (Talas Olatovi tizmasi). Piskom tizmasidagi Beshtor cho'qqisining balandligi 4299 metr.

Umuman olganda, viloyat yer usti tuzilishi shimoli-sharqdan janubi-g'arb yo'nalishida pasayib boradi. Toshkent atrofida gipsometrik ko'rsatkich 600 metrlar atrofida, janub va g'arbiy tumanlarda esa balandlik 300 metrdan ozroq. Viloyatning bunday murakkab yer usti tuzilishi, orografik xususiyati, o'z navbatida, uning mineral-xom ashyo va agroiqlimiy sharoitlarini ham belgilab beradi.

Toshkent viloyatining shimoliy va shimoli-sharqiy qismlarida Pskom, Ugom, Chotqol, Qurama tizmalari qad ko'targan. Undagi eng baland Beshtor tog'i (4299 m) Pskom tizmasidadir. Bu tog'lar G'arbiy Tyanshanning g'arbiy tarmoqlari hisoblanadi[4].

G'arbiy Tyanshan o'zining geologik rivojlanish tarixi, yer yuzasining tuzilishi va geografik muhitning boshqa xususiyatlari jihatidan Tyanshan tog' tizimining qolgan qismlaridan farq qiladi.

Bu tog'lar respublikamizda birinchi paydo bo'lgan quruqlik bo'lib, paleozoy ohaktoshlari, qumtoshlari va slaneslaridan iborat. Ular orasida esa granit, granidiorit va porfir kabi otqindi jinslar ham uchraydi. Tog'larning yonbag'irlarida va quyi etaklarida hamda daryo vodiylarida yosh mezo-kaynozoy yotqiziqlari,

ayniqsa paleogen va neogen davr shag'al va gil qatlamlari ham bor. Tog'larning vujudga kelishida avvalo kaledon, so'ngra esa gersin orogenetik jarayonlarining roli juda katta bo'lgan va bu tektonik jarayonlar ta'sirida dengiz suvlari chekinib, ko'p yerlar quruqlikka aylangan. Biroq Chirchiq-Ohangaron vodiylari o'rnida esa neogen davrigacha dengiz suvi turgan va qo'ltiq bo'lgan.

Penneplenlashgan yerlar alp tektonikasi ta'sirida qayta ko'tarilgan va relefi hozirgi qiyofaga kelgan.

G'arbiy Tyanshan hozirgi zamon relief shakllarining vujudga kelishida antropogen davr muzlanish va neotektonik jarayonlarning hamda daryolarning ishlari katta rol o'ynagan. Okrugda neotektonik jarayon hozir ham davom etmoqda. Zilzilalar va daryo qayirlarining o'zgarib turishi buning yorqin dalilidir.

G'arbiy Tyanshan relief xususiyatlari jihatidan Tyanshanning boshqa qismlaridan farq qiladi, Chunki, okrugda tog'lar panjasimon, shimoli-sharqdan janubi-g'arbga qarab parallel holda yo'nalgan bo'lib, bir-biridan chuqur va tor daryo vodiylari orqali ajralib turadi va shimoli-sharqda kenglik bo'ylab cho'zilgan Talas Olatog'iga borib tutashadi.

Talas Olatog'i G'arbiy Tyanshan tog' tizimining asosiy tizmasi bo'lib, uni Qirg'iziston Olatog'idan Tuyaoshuv (3856 m) dovoni yaqinida Talas daryosining yuqori oqimi ajratib turadi. Talas Olatog'i Utmak (3330 m) dovonigacha janubi-g'arbga so'ngra esa g'arbga yo'nalgandir. Tog' ancha baland bo'lib, bir qancha cho'qqilari doimiy qor chegarasidan balandda turadi. Lekin Toshkent viloyatiga Talas Olatog'ining hammasi emas, balki faqat Maydontol dovoni bilan Sandalash daryosining yuqori oqimi orasidagi eng baland qismigina kiradi. Bu qismda tizmaning o'rtacha balandligi 3000— 3500 m. Eng baland cho'qqisi — Manas 4488 m ga yetadi va butun Talas Olatog'ining eng baland nuqtasi hisoblanadi. Tizmaning ikkinchi baland cho'qqisi Maydontol 3521 m ga yetadi. Talas Olatog'i assimetrik tuzilgan bo'lib, shimol tomondagi tarmoqlari u qadar katta emas. Aksincha, janubga qarab esa Qorjantog', Ugom, Piskom va Ko'ksuv kabi tizmalari ajralib chiqqan.

Qorjantogʻ tizmasi eng gʻarbiy qismidagi chegara boʻlib, janubi-sharqqa yoʻnalgan va Ugom daryo vodiysi orqali sharqdagi Ugom tizmasidan ajralib turadi. Qorjantogʻ assimetrik tuzilgan boʻlib, shimoli-gʻarbiy yonbagʻri yotiq va keng, janubi-sharqiy yonbagʻri esa qisqa va tikdir. Tizma umuman ancha yemirilgan va hamon tekislanib bormoqda. Shu sababli, bu yerda qoyali, qirrali baland choʻqqilar juda kam, oʻrtacha balandligi 2000 m, ayrim choʻqqilari esa 2500—2800 m ga yetadi. Eng balandi Mingbuloq (2834 m) choʻqqisidir. Qorjantogʻ janubi-gʻarbiy tomonga asta-sekin pasaya borib, qator-qator qirlarga aylanib ketadi. Bu qirlar orasida balandligi 1768 m boʻlgan Qoziqurt togʻi boʻlib, bu togʻ shimoli-sharqqa tomon balandlashib boradi va Qorjantogʻga tutashib ketadi. Qorjantogʻ esa Ugom daryosining yuqori oqimi yaqinida Ugom tizmasi bilan birlashib ketadi.

Ugom tizmasi Piskom va Ugom daryolari orasida boʻlib, 115 km ga choʻzilgan. Bu tizma Manas togʻ uzeli yaqinida Talas Olatogʻi bilan tutashadi. Ugom tizmasi Qorjantogʻga nisbatan ancha baland va qoyali, yonbagʻirlari tik, chuqur soylari koʻp. Ugom tizmasining oʻrtacha balandligi 3000 m boʻlib, ayrim choʻqqilari 3500—4000 m ga yetadi. Eng baland joyi Sayram choʻqqisidir (4238). Ugom tizmasi shimoli-sharqqa borgan sari balandlashadi va qoyali, qirrali koʻpgina choʻqqilarni hosil qiladi. Choʻqqilar orasidagi vodiylarda esa qor uyumlari va kichik-kichik muzliklar ham uchraydi. Sayram choʻqqisidan shimoli-sharqqa borgan sari tizma bir qancha tarmoqlarga ajraladi. Bu tarmoqlardan eng muhimlari Tuproqbel va Maydontoldir. Tuproqbel togʻi Onaoʻlgan va Oygʻayin daryolari orasidadir. Bu togʻlar ancha baland boʻlib, baʼzi choʻqqilari 4300 m ga yetadi (Tuproqbel choʻqqisi 4234 m.) Shu sababli bu yerda qor uyumlari va muzliklar koʻp. Daryolari esa shoʻx boʻlib, tor joylarda ostona va sharsharalar hosil qilib oqadi.

Piskom daryosining yuqori oqimida Talas Olatogʻi Ugom tizmasiga parallel yoʻnalgan va Piskom-Koʻksuv daryolarining suv ayirgʻichi boʻlgan Piskom tizmasini ajratib turadi. Piskom tizmasi okrugning shimoli-sharqiy chegarasi hisoblanadi. Bu tizma paleozoy ohaktoshlari hamda granit, sienit jinslaridan tarkib

Piskom tizmasida kichik-kichik muzliklar bor. Umuman tizmada 47 ta muzlik bo'lib, eng kattalarining uzunligi 4-5 km keladi.

Piskom tizmasi janubi-g'arbga bir oz pasaya boradi va Chotqol vodiysiga yetmasdan Ko'ksuv daryosining yuqori oqimi orqali janubi-g'arbga Ko'ksuv tizmasi ajralib chiqadi. Ko'ksuv tizmasining uzunligi 80 km bo'lib, Piskom tizmasiga nisbatan past bo'lsada, ohaktoshlardan tuzilganligi sababli juda qoyali, chiqish qiyindir.

Ko'ksuv tizmasi janubi-g'arbga pasayib, Alom dovoni (2700 m) yaqinida Mingto'qim tog'ini ajratib chiqaradi.

Ko'ksuv tizmasi sharqdagi Chandalash tizmasidan shu nom bilan ataluvchi daryo vodiysi orqali ajraladi. Chandalash tizmasi shimoli-sharqdan janubi-g'arbga 50—60 km cho'zilgan bo'lib, eng baland joylari 3500—4000 m ga yetadi. U Chotqol tizmasidan shu nomli daryo vodiysi orqali ajraladi.

Chandalash tizmasi janubi-sharqda Chotqol tizmasidan Chotqol daryo vodiysi orqali ajralib turadi. Lekin Chotqol tizmasining faqat Chapchama dovonidan janubi-g'arbdagi qismigina G'arbiy Tyanshan Toshkent viloyatiga qaraydi. Shu sababli biz asosan shu qisminigina ko'rib o'tamiz. Umuman Chotqol tizmasi janubi-g'arbga qarab 250 km ga cho'zilgan. U Chapchama dovonigacha ancha baland (4000 m) bo'lib, yaxlit tizma hisoblanadi. Dovondan janubi-g'arbdagi qismi (Uzbekistondagi qismi) ancha kengayadi va Ohangaron, Kosonsoy, G'ovasoy, Chimyon daryolarining yuqori oqimlari va boshqa soylar orqali bo'linib-bo'linib ketadi. Bular ichida eng muhimlari Qumbel, Sargardon, Qizilnura, Arashon va boshqa tog'lardir. Bu tog'lar Ohangaron platosini shimoldan o'rab turadi. Bular ichida eng balandi va o'r-qirli Qizilnura tog'i bo'lib, uning Qirchandi cho'qqisining balandligi 4045 m ga yetadi. Bu yerda morenalar, trogsimon vodiylar tez-tez uchrab turadi. Qizilnura tog'i janubi-g'arbga, ya'ni Toshkent oldi tekisligiga (ayniqsa, Zarkent-So'qoq atroflariga) qarab asta-sekin pasayib tushadi. Qizilnura tog'i shimolga qarab davom etadi va uncha katta bo'lmagan platoga tikka tushadi. Bu platoni Oqsoqota va Oqbuloq (Janubiy Maydontol) daryolari bir qancha qismlarga bo'lib yuborgan. Oqsoqota platosining shimoli-sharqida

ohaktoshlardan iborat Katta Chimyon (3266 m) tog'i joylashgan. Bu tog'ning sharqida botiqsimon Chimyon vodiysi bo'lib, unda mashhur Chimyon kurorti joylashgan. Chimyon vodiysining sharqida esa Kichik Chimyon tog'i (2100 m) bor. Chimyon tog'lari janubi-sharqda yassi cho'qqilardan iborat bo'lgan Po'latxon tog'ligiga aylanadi, janubi-g'arbga qarab yonbag'irlari yotiq archazor va mevali daraxtlar bilan qoplangan Mayqashqa va Suranota tog'lariga tutashib ketadi.


Ohangaron platosining sharqida kristall jinslardan tuzilgan Ko'kali tog'i joylashgan. Bu massivda eni 0,5 km, bo'yi 1,5 km bo'lgan Ko'kali ko'li bor.

Ohangaron platosi paleozoy jinslaridan iborat bo'lib, balandligi 1000—2000 m. Lekin atrofini o'rab turgan tog'larga tutashgan yerlarida balandlik 3400 m ga yetadi. Platoni Ohangaron daryosi juda ham parchalab, chuqur vodiylar hosil qilgan. Ohangaron platosi janubi-g'arbga tomon balandlashib boradi va Qurama tizmasiga tutashib ketadi.

Qurama tizmasi janubi-g'arbga yo'nalgan bo'lib, ancha yemirilgan va uni Ohangaron daryosining chap irmoqlari (Arashonsoy, Toshsoy, Qamchisoy va boshqalar) o'yib-o'yib yuborgan. Tizmaning o'rtacha balandligi 1800—2000 m, eng baland qismi Ohangaron shahri kengligidagi Boboiyob cho'qqisidir (3769 m.) Qurama tizmasining janubi-g'arbga davom etgan qismi Qoramozor tog'i deb ataladi. Bu tog' Dalvarzin cho'liga yaqinlashgach, juda pasayib 600-500 m ga tushib qoladi.

Toshkent viloyatining tekislik qismi Chirchiq va Ohangaron daryolarining vodiysidan iborat bo'lib, dengiz sathidan (250—450 m) balanddir. Tekisliklar bevosita tog' oldi rayonlaridan boshlanib, Sirdaryogacha (120 km masofaga) cho'zilgan. Tekislik qism deyarli butunlay haydalgan yerlardan iborat. Chirchiq va Ohangaron daryolarining suvlari bilan Toshkent vohasini sug'orish juda qulay. Shuningdek, bu yerdagi unumdor bo'z tuproqlar va issiq iqlim paxta, meva, uzum, poliz ekinlari, sabzavot va boshqa xilma-xil ekinlar ekish, ipakchilik bilan shug'ullanish mo'l-ko'l chorvachilik mahsulotlari yetishtirish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi [7].

2-rasm. Toshkent viloyatining tabiiy xaritasi



1.2. Iqlim va ichki suvlar.

Toshkent viloyatining tog‘li qismi iqlim xususiyatlari taxminan shu kenglikda joylashgan tekislikqismining iqlimidan keskin farq qiladi: qish sovuq, yoz esa salqin va sernam bo‘ladi. Yanvarning o‘rtacha harorati -3° , -14°S (Chorvoqda -2° , -7° , Chimyonda $-4,7^{\circ}$, Chotqolda $14,2^{\circ}$). Qish oylarida shimoliy va shimoli-sharqiy havo massalari ta’sirida eng past harorat -32°S dan pastga tushishi mumkin. Hududda yoz oylarining harorati Chirchiq-Ohangaronga nisbatan bir oz past — iyul oyining o‘r-tacha harorati 20° — 26°S (Angrenda $+26,4^{\circ}$ Chimyonda $+20^{\circ}\text{S}$). Eng yuqori harorati esa ayrim joylarda 30° — 40°S ga yetadi. Okrugda sovuqsiz kunlarning soni bir yilda 200 ga boradi.

Toshkent viloyati yer yuzasinnig tuzilishi yog‘in taqsimotiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Tog‘larning g‘arbiy havo massalariga ochiq bo‘lgan yon-bag‘irlarida yiliga 1000 mm gacha yog‘in tushadi. Aksincha, berk vodiylarda va tog‘larning sharqiy yonbag‘irlarida esa yiliga 200 mm gacha yog‘in yog‘adi. Yog‘inning asosiy qismi bahor va qishda yog‘adi, yoz oylarida esa yog‘in kam yog‘adi. Xududda ko‘pincha qor yog‘adi.

Toshkent viloyatining asosiy daryosi — Chirchiq va Ohangarondir. Chirchiq daryosi Chotqol, Piskom daryolarining qo‘shilishidan vujudga keladi. So‘ngra o‘ng tomondan Ugom, Qizilsuv, Qoraqiya, Oqtosh, Sho‘ralisoy, chap tomonidan Qoramqulsoy, G‘alavasoy, Oqsoqotasoy, Parkentsoy, Boshiqizilsoy kabi irmoqlarni qo‘shib oladi.

Chirchiq daryosi qor-muzlarning erishidan to‘yinadi. Daryo suvi mart-iyul oylarida ko‘payadi. Eng ko‘p suv iyun oyida sarf bo‘ladi, qishda esa suvi juda kamayadi.

Chirchiq daryosining o‘rtacha suv sarfi (Xo‘jakentda) $224 \text{ m}^3/\text{sek}$.

Ba‘zan bahorda jala bo‘lib sel kelganda (1959 yil 9 aprelda) sekundiga $2160 \text{ m}^3/\text{sek}$. suv oqsa, qishda (1956 yil 23 fevral-da) $22 \text{ m}^3/\text{sek}$. suv o‘tkazadi, xolos.

Chirchiq daryo havzasida umumiy maydoni 173 km^2 bo‘lgan 222 ta kichik muzliklar mavjud bo‘lib, ular asosan Chotqol va Piskom daryo havzalarida

joylashgan. Usha muzliklarning eng kattasi (Piskom havzasida) Ayutur-3 muzligi bo'lib, maydoni $5,6 \text{ km}^2$ ga teng.

Chirchiq daryosining (Xo'jakent yonida) 55% suvi Chotqol, 36% suvi Piskom, 9% suvi Ugom daryolarining zimmasiga to'g'ri keladi.

Chotqol daryosi Qorag'ulja bilan Qoraqasmoq daryolarining qo'shilishidan vujudga kelib, uzunligi 223 km, suv yig'adigan havzasining maydoni 6870 km^2 . Daryo tor o'zanda shiddat bilan oqib, ba'zi vodiysi kengaygan qismida qayirlar hosil bo'ladi.

Chotqol daryosi o'ng va chapdan bir necha irmoqlar qo'shib oladi, ularning eng muhimlari (o'ng tomondan) Chandalash, Ko'ksuv, (chap tomondan) Ters va Oqbuloqdir.

Chotqol daryosi qor-muzlarning erishidan to'yinadi, shu sababli yillik oqimning (o'rtacha ko'p yillik suv sarfi quyi qismida sekundiga 124 m^3) 55% mart-iyun oylarida oqizadi.

Piskom daryosi Maydontol bilan Og'ayin daryolarining qo'shilishidan vujudga kelib, uzunligi 70 km, suv yig'adigan maydoni 2840 km^2 . Piskom daryosiga 40 dan ortiq irmoqlar kelib quyiladi. Daryo qor-muz suvlaridan to'yinib, o'rtacha yillik suv sarfi quyi qismida sekundiga $82,2 \text{ m}^3$. Ushani 47% mart-iyun oylarida, 38% iyul-sentyabrda, qolgan 15% oktyabr-fevralga to'g'ri keladi.

Chirchiq daryosining eng yirik irmog'i Ugom daryosidir. U Talas Olatog'ining janubiy yonbag'ridan OQburxon nomi bilan boshlanadi va Xo'jakent yonida Chirchiqqa quyiladi. Ugom daryosining uzunligi 70 km, havzasining maydoni 889 km^2 . Ugom daryosining ko'p yillik suv sarfi sekundiga $23,9 \text{ m}^3$ bo'lib, o'shani 63% mart-iyun-da, 22% iyul-sentyabrda, 15% oktyabr-fevralda oqizadi.

Chirchiq daryosi oqimini tartibga solish uchun suv sig'imi 2 mlrd. m^3 bo'lgan Chorvoq hamda Xo'jakent va G'azalkent suv omborlari qurilgan.

Mintaqadagi ikkinchi muhim daryosi Ohangarondir. U tog'li qismida tor vodiya oqadi. Angren shahridan o'tgach, uning vodiysi kengayadi, keng qayirlar vujudga keladi.

Ohangaron daryosini Yakkaarchasoy, Yertoshsoy, Serkaqirildisoy, Dukent, Qarabov, Niyozbosh kabi irmoqlari bor. Daryo qor-yomg'ir suvlari bilan to'yinadi. Shu sababli uning suvi aprel-may oylarida ko'payadi va yillik oqimining 51% ini, may oyida esa yillik oqimning 32% ini o'tkazadi. Qishda daryo suvi juda ham kamayadi.

Toshkent viloyatining tog'li qismida ko'llar ko'p, lekin kichik bo'lib, mahalliy ahamiyatga ega. Ularning eng muhimlari Piskom daryo havzasidagi Shovo'lko'l (maydoni 0,40 km², suv hajmi 3,89 mln. m³, o'rtacha chuqurligi 9,7 m), Katta Ixnach (maydoni 0,330 km², suv hajmi 4,800 mln. m³, o'rtacha chuqurligi 14,5 m), Yuqori Urungach (maydoni 0,120 km², suv hajmi 1,500 mln. m³, o'rtacha chuqurligi 12,6 m), Bodako'l (maydoni 0,310 km², suv hajmi 4,200 mln. m³, o'rtacha chuqurligi 13,5 m); Chotqol daryo havzasidagi Qorataka ko'li (maydoni 1,070 km², suv hajmi 48,8 mln. m³, o'rtacha chuqurligi 45,6 m); Ohangaron daryo havzasidagi Katta Arashon ko'li (maydoni 0,12 km², suv hajmi 0,56 mln. m³, o'rtacha chuqurligi 4,7 m), Ara-shondumaloq (maydoni 0,18 km², suv hajmi 1,43 mln. m³, o'rtacha chuqurligi 9,7 m) va boshqalar[4][7].

1.3. Organik dunyosi.

Toshkent viloyatining tuproq-o'simlik qoplami balandlik mintaqalari bo'yicha: cho'l mintaqasidan boshlab doimiy qor va muzliklar bilan qoplangan nival mintaqasigacha uchraydi.

Mintaqaning 450—500 m balandlikda bo'lgan va lyossimon qumoq jinslardan tuzilgan yerlarida asoean och va tipik bo'z (chirindisi 1—2% bo'lgan) tuproqlar tarqalgan. Bunday joylarda ko'proq efemer va efemeroidlardan lola, lolaqizg'aldoq, rang va qo'n-g'irboshlar o'sadi. Bu mintaqaning yuqori qismlarida oq quvrak, bug'doyiq, taktak kabi o'simliklar tez-tez uchraydi.

450 (500)-1200 m balandliklardagi adirlarda tipik va to'q bo'z tuproqlar (chirindiga ancha boy -4-6% bo'lgan) tarqalgan. Bunday yerlarda qo'ng'irbosh, rang, bug'doyiq, kakra, bo'tako'z, marmarak, sariqchoy o'sadi. Erta bahorda esa

boychechak, qoqi, lola, lolaqizg'aldoq barq urib yotadi. Butalardan esa do'lana, tog'olcha, achchiqbodom uchraydi.

Mintaqaning 1200—2500 (3000) m balandlikdagi qismlarida iqlim nam, u yerlarda baland bo'yli o'tlar, butalar va keng bargli daraxtlar o'sadi. Bular tagida esa qo'ng'ir tog'-o'rmon tuprog'i paydo bo'lgan. Bu tuproq chirindiga boy (10%). Lekin shu balandlikdagi ba'zi qurg'oqchil rayonlarda, chunonchi, Ohangaron platosida jigarrang tog'-o'rmon tuprog'i uchraydi.

Usimliklar qavat-qavat bo'lib o'sadi. Eng pastki qavatda o'tlar-bug'doyiq, chalov, betaga, chayir, shirach, gulhayri va boshqalar o'sadi; ikkinchi qavatida tikanli bodom, do'lana, zirk kabi butalar va o'tlar baland bo'lyb o'sib yotadi. Nihoyat, uchinchi qavat mevali va mevasiz daraxtlardan iborat bo'lyb, archa, yong'oq, zarang, Tyanshan yeli, qayin, qayrag'och, tol, terak, olma, nok, olcha va boshqalar o'sadi.

3000—4000 m balandlikda iqlim ancha sovuq. Bu yerlarda barra o'tlardan iborat subalp, alp o'tloqlari hukmronlik qiladi.

Bu joylarda tog'-o'tloq, toshloq-shag'al tuproqlar, torfli tog'-o'tloq tuproqlar, Ohangaron platosida esa jigarrang tuproq keng tarqalgan. Usimliklardan qo'ng'irbosh, mushuk quyruq, geran, ta-ran, qiziltikan, kavrak, Alp lolasi, yovvoyi piyoz va boshqalar eng ko'p o'sadi.

Mintaqaning 3500 (4000) m dan yuqori qismi yalang qoyalardan, tosh va shag'allardan yoki doimiy qor va muzliklardan iborat ni-val mintaqadir.

G'arbiy Tyanshanning hayvonot dunyosi turli-tumandir. Urmonlarda cho'chqa, bo'rsiq, olmaxon, kalamush, yumronqoziq, sichqon va ilonlar, tog'larning baland qismlaridq esa kiyik, qor qoplani, silovsin, bo'ri, ayiq, tulki; qushlardan kaklik, kaptarlar, boyqush, bulbul, chumchuq, qirg'iy, lochin, kalxat, so'fito'rg'ay kabilar ko'p.

G'arbiy Tyanshan okrugining qiziqarli landshafti, nodir o'simlik va hayvonlarini muhofaza qilish uchun Chotqol davlat tog'-o'rmon qo'riqxonasi va Oqcha buyurtmasi tashkil etilgan.

Chotqol davlat togʻ-oʻrmon qoʻriqxonasida togʻ-oʻrmon landshafti va u yerda yashovchi hayvonlar muhofaza qilinadi. Qoʻriqxonaning asosiy qismi Toshkentdan 70 km sharqdagi Qizilnura togʻida joylashgan. Bu yerda YuNESKO ning «Qizil kitob»iga kirgan qor barsi, Menzbir sugʻuri va kaklik ham qoʻriqlanadi.

Oqcha buyurtmasi esa Ohangaron daryosining toʻqaylarida tashkil etilgan boʻlib, u yerda toʻqay landshafti va qirgʻovul saqlanadi.

Mintaqaning yana bir muhim boyligi Chirchiq va Ohangaron daryo suvlari, goʻzal manzarali, sof iqlimli shifobaxsh joylari (Chimyon, Oqtosh, Burchmulla, Xumson kabi yerlaridagi dam olish maskanlari). Bulardan tashqari okrug hududida koʻplab mevali va dorivor oʻsimliklar mavjud boʻlib, koʻplab yongʻoq, olisha, bodom, zirk mevalari yigʻib olinadi.

Chirchiq vodiysining togʻli qismidagi ajoyib tabiat manzaralarini oʻz holicha saqlab qolib, u yerdagi oʻsimlik, va hayvonlarni hamda tabiat yodgorliklarini muhofaza qilib, qayta boyitib borish maqsadida Chotqol-Ugom xalq bogʻi tashkil etildi[7].

II.BOB. TOSHKENT VILOYATINING RIVOJLANIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI IJTIMOIIY – IQTISODIY OMILLAR.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarga **aholi va mehnat resurslari, ilmiy texnika, ijtimoiy va ishlab chiqarish infrastrukturasini, transport** kabilar mansub. Aholi bir vaqtning o'zida ham yaratuvchi ham iste'molchi ekanligi, uning barcha demografik ko'rsatkichlari-soni, o'sishi, zichligi, yosh va jinsiy tarkibi, intellektual salohiyati hisobga olinadi (A.Soliev, I.Safarov) [10].

2.1. Ijtimoiy – iqtisodiy omillar.

Toshkent viloyati respublikamiz hududiy mehnat taqsimotida o'zining ko'p tarmoqli iqtisodiyoti bilan ajralib turadi. Viloyat sanoat ishlab chiqarishida mashinasozlik, ko'mir, elektr energiya, qurilish materiallari, mineral o'g'itlar, yengil va oziq-ovqat sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Agroiqtisodiyot tizimida esa paxta, meva va uzum yetishtirish, go'sht va sut chorvachiligi, shahar atrofi qishloq xo'jaligi yaxshi rivojlangan. O'zbekistonda bunday mukammal va murakkab tizimga ega bo'lgan hududiy ishlab chiqarish majmuasi boshqa mintaqalarda shakllanmagan.

2013 yil yakunlariga ko'ra, viloyat yalpi hududiy mahsulotining 30,0 foizi sanoatga, 21,0 foizi qishloq xo'jaligiga, 16,6 foizi transport va aloqaga, 9,9 foizi savdo va umumiy ovqatlanishga, 4,8 foizi qurilishga to'g'ri keladi. Agar mintaqada qishloq xo'jaligini ma'lum darajada sanoatlashganligi hisobga olinsa, uning iqtisodiyotini industrial-agrar yo'nalishda ekanligini e'tirof etish mumkin. SHu bilan birga yuqoridagi ko'rsatkichlar respublika boshqa hududlari bilan taqqoslaganda qurilish ko'rsatkichining eng pastligi, transport va aloqaning esa eng yuqoriligi ko'zga tashlanadi. Kichik biznesning YaHMDagi ulushi 55,3 %[21].

2011 yilning 1 yanvar holatiga viloyatda jami 25,0 ming kichik biznes sub'ektlari rasmiylashtirilgan. Viloyat bo'yicha sanoat mahsulotining 18,4, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 96,0 foizini aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ta'minlaydi. Geografik nuqtai nazardan qaralganda esa Parkent tumanining 100 foiz sanoat mahsuloti, Piskent, Bekobod, Bo'ka, Oqqo'rg'on tumanlarining 100 foiz qurilish ishlari mazkur soha zimmasiga tushadi.

Albatta, har qanday hudud ishlab chiqarish va umuman iqtisodiyotning rivojlanishi eng avvalo kapital qo'yimalarga bog'liq. 2013 yilda jami investitsiya hajmi 2861,7 milliard so'mni tashkil qilgan. Uning kattaroq qismi Qibray (15,3 %) va Zangiota (11,7 %) tumanlariga hamda Angren (12,0 %) Olmaliq (9,2 %) va Bekobod (7,5 %) shaharlariga tegishli. Mazkur yilda kapital qo'yimalarning nisbatan pastroq ko'rsatkichi Piskent, Bo'ka, Bekobod va Oqqo'rg'on tumanlarida va Ohangaron shahrida kuzatiladi. Qurilish ishlari investitsiya va kapital qo'yimalarni amalga tadbiq qilishning asosi hisoblanadi. Bu borada Angren shahri, Qibray, Yuqorichirchiq, Bo'stonliq, Yangiyo'l ajralib turadi. Piskent, Quyichirchiq tumanlarida esa ko'rilayotgan yilda uncha katta qurilish ishlari olib borilmagan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Toshkent viloyatida sanoat ishlab chiqarishining turli tarmoqlari mavjud. Bunga mintaqaning mineral xom ashyo va mehnat resurslari, transport va iqtisodiy geografik o'rni katta ta'sir ko'rsatgan.

1-jadval

Viloyatning ko'p tarmoqli sanoat ishlab chiqarishining tarkibi 2013 yilda quyidagicha bo'lgan (jami mahsulotga nisbatan foizda):

Yoqilg'i-energetika	17,5	Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	4,8
Metallurgiya	36,3	Qurilish material-lari sanoati	6,3
Kimyo va neft kimyosi	8,3	Oziq-ovqat sanoati	12,8
O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va tsellyuloza qog'oz	1,8	Boshqa sanoat tarmoqlari	1,2
Engil sanoat	10,8		

Viloyatda jami 4478 ta sanoat korxonalari, shu jumladan, 84 ta yirik korxonalar mavjud. Ularning barchasida 105,4 ming ishchi va xizmatchilar band. Xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari (36,1 %) yetakchilik qiladi. Noziq-ovqat mahsulotlari 34,5 %, vino-arok va pivo ichimliklari 29,2 foizni tashkil etadi. Aholi jon boshiga ko'rilayotgan 2010 yilda 927,5 ming so'mlik XIM ishlab chiqarilgan bo'lib, bu ko'rsatkich Ohangaron shahrida, Qibray va Zangiota tumanlarida ancha yuqori. Bekobod, Oqqo'rg'on,

Bo'ka, Yangiyo'l tumanlarida esa u juda oz. Keltirilgan ko'rsatkichlar 2000 yil ma'lumotlariga taqqoslansa, metallurgiya, xususan, rangli metallurgiya, kimyo va neft kimyosi sanoat tarmoqlarining yuqori sur'atlarda rivojlanishini ilg'ash mumkin. Ayni vaqtda an'anaviy yengil va mashinasozlik sanoatining ulushlari birmuncha pasaygan.

Toshkent viloyati qudratli elektr energetika bazasiga ega. Bu yerda 19 ta GESdan iborat Chirchiq-Bo'zsuv kaskadi, qator IES mavjud. Suv elektr stantsiyalari orasida eng kattasi Chorbog' (quvvati 660 ming kVtdan ortiq). Toshkent IESning quvvati 1920 ming kVt ga yaqin, Yangi Angren IESniki 2400 ming kVt (Nurobod shaharchasi)². SHuningdek, Angren shahrida Angren - 1 IES (600 ming kVt) ham ishlab turibdi. Issiqlik elektr stantsiyalari ko'mir, mazut va gaz asosida ishlaydi. 2009 yilda viloyatda 18,7 mlrd. kVt/soat elektr energiya (2000 yilda 21,6 mlrd. kVt/soat) ishlab chiqarilgan. Bu respublikaga nisbatan 37,4 % demakdir.

Toshkent viloyati O'zbekistonning asosiy ko'mir ishlab chiqaradigan mintaqasi hisoblanadi. So'nggi yillarda Angren konidan ko'mir qazib olish biroz rivojlanmoqda (3338 ming tonna). Bu yerdan olinadigan qo'ng'ir ko'mir issiqlik elektr stantsiyalarda va kommunal xo'jaliklarda ishlatiladi. Angren havzasi respublika ko'mirining 95,0 foizini beradi. Ushbu kondan ko'mir qatlamlari orasida joylashgan kaolin ham olinadi. U keramika va alyuminiy sanoati uchun xom ashyo sifatida xizmat qiladi. Hozirda "Kaolin" qo'shma korxonasi ham ishlab turibdi[4].

Qora metallurgiya viloyat sanoatining asosiy tarmoqlaridan biridir. Bu yerda o'tgan asrning 40-yillarida Bekobod (O'zbek) to'liq tsiklga ega bo'lmagan metallurgiya kombinati qurilgan. U temir-tersakdan foydalanadi. Kombinat O'rta Osiyoda yagona korxona hisoblanadi. Korxonada 2013 yilda 748 ming tonna po'lat va 682 ming tonna tayyor prokat ishlab chiqarilgan. Bu O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mazkur mahsulotning 100 foizini tashkil qiladi.

² Hozirgi vaqtda Yangi Angren IES – quvvatini oshirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Toshkent viloyatining eng yetakchi sanoat tarmog'i – rangli metallurgiya mintaqa yalpi sanoat mahsulotining 27,7 foizini beradi. Bu borada eng avvalo Olmaliq tog'-metallurgiya kombinati ajralib turadi. Kombinatda mis, qo'rg'oshin, rux va boshqa nodir hamda qimmatbaho metallar olinadi. Bundan tashqari, Angrenda oltin boyitish fabrikasi, Chirchiqda qiyin eriydigan va o'tga chidamli qotishmalar kombinati bor. Kombinat Ingichka (Samarqand viloyati) va Qo'ytosh (Jizzax viloyati) volfram va molibden konlari asosida ishlaydi.

Kimyo va neft kimyosi sanoatining yetakchi korxonalari Chirchiq va Olmaliq shaharlarida joylashgan. Bir yilda o'rtacha 500 ming tonna sun'iy ammiak, 460 ming tonna mineral o'g'itlar (azot, ammos) va 225 ming tonna karbamid tayyorlangan. SHuningdek, bu tarmoqqa "Maxam Chirchiq" OAJ, Olmaliq shahridagi "Ammos" hamda "Maksam O'zbekiston" qo'shma korxonalar ham kiradi. Toshkent viloyati respublikaning 39,7 % sun'iy ammiak, 42,8 % mineral o'g'itlar va 43,8 % karbamidini ta'minlaydi[6].

Ta'kidlash joizki, mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoati ma'lum sabablarga ko'ra biroz sust rivojlanmoqda. Viloyatda traktor kultivatorlari, kompressor, transformator va boshqa mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqariladi. Asosiy markazi – Chirchiq shahri. Bu yerda Chirchiq metal qurilmalari, "Chirchiqqishmash", "Transfarmator", "O'zbekkimyomash" kabi yirik sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. SHu bilan birga, Zangiota tumanida "Xaytek kabel" qo'shma korxonasi, To'ytepada metal qurilmalari zavodi ham bor.

Qurilish materiallari sanoati viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Ushbu sanoat tarmog'ining yetakchi korxonalari Bekobod va Ohangaron shahrida joylashgan. Bir yilda 2670 ming tonna sement (O'zbekiston Respublikasiga nisbatan 39,0 %), 281 mln. shartli plitka shifer, 128 ming kub metr ga yaqin yig'ma temir-beton qurilmalari ishlab chiqariladi. Mahsulot qiymatiga ko'ra "Ohangarontsement" va "Bekobodtsement" OAJ oldinda turadi. Bekobod va Ohangaron shifer ishlab chiqaruvchi zavodlar, Bo'stonliq tumanidagi energiya qurilish industriyasi korxonasi, Qibray tumani temir-beton hamda g'isht zavodlari ham mazkur tarmoq rivojlanishida salmoqli o'rinlarga ega. Bo'stonliq

tumanida (Iskandar shaharchasi) “G’azalkent oyna”, G’azalkent shahrida marmarni qayta ishlash (qirqish) zavodlari ishlab turibdi [18].

Engil sanoat mahalliy xom ashyo va ko’p sonli mehnat resurslari hamda aholi ehtiyoji – iste’mol omillari ta’sirida shakllangan. Bu yerda 10 ga yaqin paxta tozalash zavodlari bor; eng yiriklari Alimkent, Bekobod, Bo’ka, Quyichirchiq, O’rtachirchiq tumanlarida joylashgan. O’rtacha bir yilda 75-80 ming tonna paxta tolasi tayyorlanadi. O’rtachirchiq tumanida “Spen tex Toytepa tekstil”, Bo’stonliq tumanida “Osborn tekstil”, Ohangaron tumanida “Koray tekstil”, Zangiota tumanida “Alfi tekstil” qo’shma korxonalari mavjud, Olmaliq shahrida gilam fabrikasi bor. 2013 yilda viloyatda 93,4 ming t. paxta tolasi, 62,5 ming t. ip-gazlama, 25,6 mln dona trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

Tahlillarga ko’ra, viloyatda trikotaj mahsulotlarini tayyorlash biroz rivojlanib borayotgan bo’lsada, gazlama, gilam va gilam mahsulotlari, paypoq ishlab chiqarish ko’rsatkichlari so’nggi yillarda keskin pasaygan. To’qimachilik korxonalari Chinoz, Yangiyo’l va boshqa shaharlarda, asosan xorijiy investitsiyalar ko’magida faoliyat ko’rsatmoqda. Chirchiq va Yangiyo’l shaharlarida poyafzal sanoati ham joylashgan, Chirchiqda “G’uncha” OAJ ishlab turibdi.

Aholining kundalik ehtiyojini qondirishda oziq-ovqat sanoatining ahamiyati katta. Ushbu tarmoq viloyat jami sanoat mahsulotining 12,8 foizini beradi va bu borada u metallurgiyadan keyingi 2-o’rinda turadi. Bir yilda 1,8 ming tonna baliq ovlanadi, ko’plab non va non mahsulotlari, sut, o’simlik yog’i, ma’danli suvlar va vino, aroq, pivo ishlab chiqariladi. Tayyorlanadigan un har yili 75-100 ming tonna, o’simlik yog’i 10-15 ming tonna, omuxta yem 30-40 ming tonna oralig’ida tebranib turadi. Ushbu sanoat tarmog’ining asosiy korxonalari Yangiyo’l yog’-moy va konditer korxonalari, Olmaliq pivo, Qibray pivo va Parkent shampan zavodlari, Qibray va Zangiota tumanlarining meva-sharbat korxonalari, “Ohangarondon” OAJ va boshqalar. Bular qatorida Bo’stonliq, Quyichirchiq, Zangiota tumanlarida ham oziq-ovqat sanoatining turli xil korxonalari bor. O’rtaovulda yirik go’sht kombinati joylashgan, sut va sut mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar Angren, G’azalkent, Chirchiq va Bekobod shaharlarida tashkil etilgan. Ta’kidlash

lozimki, viloyatda oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi bu yerda yirik megapolis – Toshkent shahri joylashganligi, katta iste'mol omilining mavjudligi bilan ham tavsiflanadi.

Viloyat sanoat geografiyasida, eng avvalo, Olmaliq, Bekobod va Chirchiq shaharlari, shuningdek, O'rtachirchiq va Qibray tumanlari ajralib turadi. Birgina Olmaliq shahri poytaxt viloyati sanoat mahsulotining deyarli 1/3 qismini beradi. Bekobod shahrining ulushi 16,5 %, Chirchiq shahriniki 11,0 %. SHu bilan birga, Angren va Yangiyo'l shaharlarining sanoat salohiyati juda past: 2,9 va 1,7 %; Bo'ka, Parkent, Piskent, Ohangaron tumanlarida qishloq sanoati o'ta sust darajada. Qibray tumanida mustaqillik yillarida farmatsevtika va tibbiyot jihozlari tayyorlovchi korxonalar qurilgan.

Aholi jon boshiga hisoblaganda, viloyat bo'yicha 1612 ming so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan. Bundan yuqori ko'rsatkichlarga Olmaliq, Bekobod, Ohangaron, Chirchiq shaharlari ega, qishloq tumanlari orasida esa nisbatan kattaroq daraja O'rtachirchiq, Qibray va Zangiota tumanlarida qayd etiladi (1100-1450 ming so'm atrofida).

Viloyat sanoatini hududiy tashkil etishda Angren - Olmaliq tog'-kon sanoati ko'zga tashlanadi. Sanoat markazlari sifatida Chirchiq, Bekobod, Angren, Olmaliq, Ohangaron, Yangiyo'l kabilarni belgilash mumkin. Qolgan shahar joylarning ko'pchiligi sanoat punkti darajasida, ayrimlarida esa bunday korxonalar butunlay mavjud emas.

Mintaqada sanoatning kelajakda rivojlanishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, tarmoqlar tarkibini diversifikatsiyalash, mineral xom ashyo va mehnat resurslaridan samarali foydalanish hamda ekologik muammolarni hal etish bilan bog'liq. Ayniqsa, og'ir sanoat markazlari – Chirchiq va Angren shaharlarini depressiv holatdan chiqarish, o'sish qutb va markazlarini, yangi sanoat tugunlarini shakllantirish, qishloq sanoatining jadal rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo'jaligi. Toshkent viloyati respublikamizda nisbatan yuqori urbanizatsiyalashgan va sanoatlashganligi bilan bir qatorda katta agroiqtisodiy

salohiyatga ham ega. Mintaqa mamlakat qishloq xo'jalik mahsulotining 13,1 foizini beradi, uning hududiy mahsuloti tarkibida esa bu makroiqtisodiy tarmoq 24,4 foizga teng. Qishloq xo'jaligining intensiv rivojlanishiga agroiklimiy sharoit, mehnat resurslari, birmuncha suv resurslari bilan yaxshi ta'minlanganligi, irrigatsiya infratuzilmasining barpo etilganligi hamda yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyasi ta'sirida katta iste'mol omilining mavjudligi sabab bo'lgan.


Viloyat yalpi qishloq xo'jalik mahsulotida dehqonchilik ustunlik qiladi (2013 y.-61,1 %). Ushbu mahsulotning 35,8 foizini fermer xo'jaliklari beradi. Fermer xo'jaliklari asosan dehqonchilikda, xususan, paxta, bug'doy va boshqa ekinlarni yetishtirishda katta mavqega ega.

Poytaxt viloyatida qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlar 813,9 ming ga yoki umumiy yer maydonining 53,3 foiziga teng. Albatta, bu raqam, mintaqa qisman tog'li hududlardan iborat ekanligi sababli, uncha katta emas. Sug'oriladigan yerlar 339,0 ming ga bo'lib, ular jami qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 41,6 foizini tashkil qiladi. Bunday maydonlar nisbati Zangiota, Quyichirchiq, Toshkent, Yangiyo'l tumanlarida katta, Bo'stonliq, Parkent, Ohangaron tumanlarida esa eng kichik.

Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 41,9 foiziga turli xil ekinlar ekiladi. Ekin maydonlari ko'p yoki intensiv qishloq xo'jaligi (dehqonchilik) rivojlangan tumanlar O'rtachirchiq, Quyichirchiq, Chinoz, Oqqo'rg'on, Bekobod kabilardir. Ayni paytda bunday yerlar ulushi Bo'stonliq (6,4 %), Ohangaron (17,3 %) va Parkent (20,7 %) tumanlarida sezilarli darajada past. Biroq, aynan shu hududlarda pichanzor va yaylovlar katta maydonlarni egallaydi.

Jami ekin maydoni 355,1 ming gektar, uning 84,7 foizi fermer xo'jaliklari tasarrufida. Donli ekinlar 158,8 ming ga yoki jami ekin maydonining 44,7 foizini egallaydi. 2010 yilda 740,8 (2009 y.-758,7) ming tonna turli xil don (asosan bug'doy – 616 ming tonna) yalpi hosili olingan, hosildorlik 45,8 s/ga. Donli ekinlar tarkibida 10 ming gektarga yaqin maydonda makkajo'xori ekilib, undan 62 ming tonnaga yaqin hosil olingan.

3-rasm. Toshkent viloyati iqtisodiy xaritasi.



Asosiy qishloq xo'jalik ekinlaridan paxta 98,2 ming gektarni egallaydi; yalpi hosil 230,4 ming tonna atrofida, hosildorlik 23,5 ts/ga. Paxta ko'proq Bo'ka, Oqqo'rg'on, Piskent, Chinoz va Bekobod tumanlarida ekiladi. SHoli ko'rilyotgan yilda 5,7 ming gektarda yetishtirilgan (Bekobod tumani), yalpi hosil 27,0 ming tonna. Boshqa texnika va moyli ekinlardan keyingi yillarda masxar va kungaboqarning ham maydonlari kengayib bormoqda.

Ko'p millionli Toshkent shahri va Toshkent viloyati uchun katta miqdorda kartoshka va sabzavot yetishtirish talab etiladi. 2013 yilda 8,5 ming ga yerdan 336 ming tonna kartoshka olingan. Barcha turdagi sabzavotlarga esa 34,1 ming ga maydonlar ajratilgan bo'lib, 1716,1 ming tonna hosil yetishtirilgan. Sabzavot va kartoshkaga asosan Toshkent shahri atrofi xo'jaliklari, shuningdek, Bekobod, Piskent va Chinoz tumanlari ixtisoslashgan. Polizchilik ham tekislik hududlarda joylashgan qishloq tumanlarida ko'proq rivojlangan.

Toshkent viloyatida, xususan, tog'li hududlarda o'rtnashgan Bo'stonliq va Parkent tumanlarida bog'dorchilik yaxshi yo'lga qo'yilgan. Oldingi yillarda bu qishloq xo'jaligi tarmog'i Yangiyo'l tumanida ham rivojlangan edi. Hozirgi vaqtda turli xil mevalar 18,7 ming gektardan 140 ming tonnadan ko'proq hosil olingan. Uzunmchilik ham bog'dorchilik bilan birga hududiy tashkil etiladi. Uzun yetishtirishda Parkent tumaniga nafaqat viloyatda, balki respublikada ham raqobat yo'q. Tahlil qilinayotgan yilda u 13 ming gektardan ko'proq maydonni egallagan va 115 ming tonnadan ziyodroq hosil tayyorlangan.

Viloyatda chorvachilikning asosan sut-go'sht yo'nalishi ko'proq rivojlangan. Jami 727,2 ming bosh yirik shoxli qoramol, 758,7 ming bosh qo'y va echkilar boqiladi. Otlar soni ham nisbatan ko'proq – 45,7 ming bosh. 2013 yilda tirik vaznda 199 ming tonna go'sht, 688 ming tonna sut, 1141 mln. dona tuxum, 1,9 ming tonna atrofida jun va 1,6 ming tonna pilla yetishtirilgan. Parrandachilik ko'proq Qibray, Zangiota tumanlarida rivojlangan.

Qishloq xo'jaligi geografiyasida Zangota (12,4), Bekobod (8,7 %), Qibray (8,3 %) tumanlari oldinda. Aholi jon boshiga hisoblaganda esa (o'rtacha joriy narxda 794 ming so'm har bir kishiga) Oqqo'rg'on, Bekobod, Yuqorichirchiq,

Quyichirchiq, Chinoz va Piskent tumanlari yuqori ko'rsatkichlarga ega. Ularda bu ko'rsatkich 1000-1100 ming so'mga yetadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra g'alla yetishtirishda Bo'ka, Quyichirchiq, Yuqorichirchiq va O'rtachirchiq tumanlari peshqadam. Sabzavot bo'yicha Bekobod, kartoshkada Chinoz, Piskent, Qibray ajralib turadi. Bog'dorchilik Yangiyo'l, Qibray va Bo'stonliq tumanlarida rivojlangan; ularning hissasi viloyatda yetishtirilgan mevalarda 42,1 %. Uzumchilik esa Parkent tumanidan tashqari (36,7 %) Bo'stonliq tumanida ham qisman rivojlangan. Mazkur ikki tuman viloyat uzumining yarmiga yaqinini beradi.

Chorvachilik geografiyasida ham ancha farqlar ko'zga tashlanadi. Masalan, yirik shoxli qoramollar Bekobod va Bo'ka, qo'y va echkilar esa Ohangaron va Bo'stonliq tumanlarida ko'proq boqiladi. Bu tog' va tog'oldi hududlarda joylashgan tumanlarga viloyat qo'y va echkilarining 1/3 qismidan ortig'i to'g'ri keladi.

Viloyatda, 2012 yil yakunlari bo'yicha, jami 5989 ta fermer xo'jaliklari qayd etilgan, umumiy yer maydoni 300,8 ming ga, ishchi va xizmatchilar soni 132 ming kishi. Har bir fermerga o'rtacha 50,2 ga yer va 22,0 kishidan ishchi to'g'ri keladi. Yer maydoni ko'rsatkichlariga qaraganda eng katta maydonlar O'rtachirchiq, Bekobod, Bo'stonliq, Chinoz tumanlarida kuzatiladi. Jumladan, Bo'stonliq tumanida har bir fermerga 136,5 ga yer to'g'ri keladi (bu tuman qishloq xo'jaligining ixtisoslashuviga bog'liq). Yuqoridagi qolgan tumanlarda mazkur ko'rsatkichlar 80 gektardan ortiqroq. Ayni vaqtda Qibray va Zangiotada, ya'ni Toshkent shahri atrofi xo'jaliklarida fermerlarning yer maydoni eng kam (mos holda 32 va 28 gektardan). Ishchi xodimlar soniga ko'ra yuqori ko'rsatkichlar Quyichirchiq va Bo'ka tumanlarida. Ularda tashkil etilgan fermer xo'jaliklarining har birida 40-42 kishidan ishchi band. Ishchilarning eng oz soni Parkent (8,8), Ohangarg'on (o'rtacha 7,7 kishi), Bo'stonliq (5,4), Qibray (5,1 ishchi va xodimlar) tumanlarida qayd etiladi.

Toshkent viloyati qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududiy tarkibi
(viloyat jamiga nisbatan foizda, 2010 y.).

t/r	Qishloq tumanlari	boshoqli don	sabzavot	kartoshka	meva	uzum	go'sht	sut	tuxum	yirik sholi qoramol	qo'y va echkilar
1	Bekobod	9,7	12,8	6,7	4,4	0,9	6,8	9,7	1,7	8,1	4,0
2	Bo'stonliq	2,5	9,1	9,6	12,4	10,5	7,8	9,3	2,2	7,7	13,3
3	Bo'ka	12,1	1,6	3,8	1,7	0,3	6,1	6,5	1,7	8,1	6,4
4	Zangiota	1,6	8,2	6,3	8,0	5,3	7,6	6,0	13,1	5,2	2,2
5	Ohangaron	5,7	2,7	1,4	3,2	6,4	5,0	5,3	1,1	6,9	20,9
6	Oqqo'rg'on	8,1	6,0	4,6	3,7	0,7	5,5	6,5	2,4	7,0	3,3
7	Parkent	2,6	2,2	2,2	6,6	36,7	4,4	5,7	0,2	6,0	12,5
8	Piskent	8,3	5,0	11,2	1,6	1,7	5,1	6,3	3,5	6,2	5,9
9	Toshkent	1,6	6,3	7,8	7,4	9,2	5,0	5,1	6,2	3,4	1,6
10	Chinoz	6,0	8,7	11,6	3,5	1,1	5,8	5,9	1,9	5,9	4,1
11	Yuqorichirchiq	10,7	3,5	3,4	6,4	2,4	5,7	6,3	3,0	6,0	2,4
12	Yangiyo'l	6,0	9,6	5,8	17,3	9,4	5,9	6,3	3,8	6,3	5,4
13	O'rtachirchiq	10,6	5,9	6,6	2,0	0,9	8,9	5,7	12,5	6,6	5,4
14	Qibray	2,6	7,1	11,3	12,4	5,9	5,6	5,3	42,2	5,2	3,1
15	Quyichirchiq	11,8	4,8	5,4	2,9	4,1	4,6	6,4	2,8	5,8	1,6
	SHahar joylar	0,0	6,5	2,2	6,4	4,3	10,2	3,8	1,7	5,5	7,2

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Fermer xo'jaliklari viloyat yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 35,8 foizini yetishtirgan holda, bu borada Quyichirchiq, Chinoz, Yangiyo'l va Piskent tumanlari ajralib turadi. SHu bilan birga mulkchilikning bu shakli Zangiota va Qibray tumanlarida birmuncha sustroq rivojlangan.

Barkamol va sog'lom avlodni tarbiyalash, aholi turmush sharoiti va darajasini yaxshilash ko'p jihatdan ijtimoiy sohalar, ijtimoiy infratuzilma tizimining rivojlanishiga bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, mustahkam iqtisodiy zaminga asoslanadi.

Toshkent viloyatida ijtimoiy sohalarning barcha tarmoqlari rivojlangan. Bunga uning geografik joylashgan o'rni, poytaxt mintaqasi ekanligi, malakali

ishchi kadrlar va fan texnika salohiyatining mavjudligi ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Viloyatda nomoddiy sohalarda jami iqtisodiyotda band aholining 30 foizga yaqini xizmat qiladi.

2013 yilda aholi jon boshiga 1900 ming so'mlik hajmda chakana savdo aylanmasi bajarilgan. Hududiy tarkibda uning eng katta darajasi Zangiota tumaniga to'g'ri keladi. Qibray tumanining ham bu boradagi ko'rsatkichlari ancha yuqori. SHaharlar miqyosida esa Angren va Olmaliq oldinda turadi. Ayni vaqtda Ohangaron va Yangiyo'l tumanlarida bu ko'rsatkich juda past.

Aholi jon boshiga hisoblaganda ham Zangiota va Quyichirchiq tumanlari ajralib turadi. SHu bilan birga, Yangiyo'l va Ohangaron shaharlarining ham bunday funktsiyasi nisbatan rivojlangan. SHu o'rinda alohida qayd etish joizki, shaharlarning savdo, pullik yoki boshqa xizmat turlarining nisbiy ko'rsatkichlari, odatda, juda yuqori bo'ladi. Sababi shaharlar nafaqat o'zining aholisiga, balki yaqin atrofdagi qishloq aholisiga ham xizmat ko'rsatadi. Bu ularning shahar yoki rayon hosil qiluvchi funktsiyasi - vazifasi doirasiga kiradi. Jumladan, viloyatda bajarilgan pullik xizmatlarning 1/5 qismidan ko'prog'i faqat ikki shahar, ya'ni Chirchiq va Yangiyo'l zimmasiga tushadi. Qishloq tumanlari miqyosida esa Zangiota tumani yetakchi. Biroq pullik xizmatlarning hududiy ko'rsatkichlarida Bo'ka, Ohangaron, Piskent tumanlari uncha ko'zga tashlanmaydi.

Viloyatda tibbiyot muassasalari soni 387 ta, shundan byudjet tizimida 387 ta. Har 10 ming kishiga 33,0 ta bemor o'rinlari, 18,5 nafar vrachlar va 111,5 kishi o'rta tibbiyot xodimlari to'g'ri keladi. Qishloq vrachlik punktlari jami 259 ta, har bir qishloq tumaniga – 17,4, har 3,4 ta qishloq aholi punktiga 1 tadan QVP xizmat ko'rsatadi. Har 100 ming aholiga nisbatan kasallanganlar soni viloyat bo'yicha 2013 yilda 37,2 ming kishi. Bu ko'rsatkich Bekobod shahri, Chinoz va Yangiyo'l tumanlarida yuqoriroq, Yuqorichirchiq, O'rtachirchiq, Parkent va Oqqo'rg'onda esa pastroq.

Kasalxonadagi o'rinlar bilan ta'minlanishida ham hududiy tafovutlar mavjud. Chunonchi, har 10 ming kishiga viloyatda 39,8 ta bemor o'rinlari to'g'ri kelgan holda, u Yangiyo'l, Bekobod, Angren shaharlarida 50-70 tani tashkil qiladi.

Ammo, qishloq joylarda bu borada hozircha to'liq hal qilinmagan muammolar bor. Masalan, Ohangaron tumanida bu ko'rsatkich atigi 19,9, Oqqo'rg'onda 19,6 va h.k.

Aholi sog'lig'ini saqlash va uning kundalik hayotida tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik muhim o'rin tutadi. Viloyatda tabiiy gaz bilan o'rtacha 88,5 foiz aholi ta'minlangan. Qizig'i shundaki, ko'pgina o'rta va katta shaharlarda mazkur daraja 100 foizga teng bo'lgan sharoitda u Angrendek shaharda bor-yo'g'i 35,4 %. Bu ko'rsatkich hatto qishloq tumanlari darajasidan ham past. Zangiota, Yuqorichirchiq aholisi tabiiy gazdan to'liq foydalanadi, faqat Bo'ka, Piskent, Bekobod, Oqqo'rg'on va Ohangaron tumanlarida biroz muammolar bor.

Ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik ko'rilayotgan 2010 yilda o'rtacha 81,4 %; shaharlarning ko'pchiligida u 100 foiz. Qishloq tumanlari miqyosida esa Quyichirchiq, Yuqorichirchiq, Oqqo'rg'on tumanlari ancha orqada. O'rtacha darajadan yuqoriroq ko'rsatkich faqat Qibray tumanida qayd etiladi.

Poytaxt viloyatida ta'lim tizimi ham boshqa mintaqalarga qaraganda ancha rivojlangan. Bu yerda jami 885 ta umumta'lim maktablari bor. Ularda 459 ming nafar yoki har bir maktabda 586 tadan o'quvchi ta'lim oladi. Akademik litseylar 6 ta, talabalar soni 3575 ta kishi. Kasb-hunar kollejlari 122 ta bo'lib, ularning har birida 982 tadan talaba bor (2012/2013 o'quv yili).

Ta'kidlash joizki, viloyatda umumta'lim maktablari o'quvchilar soniga ko'ra uncha katta emas, kasb-hunar kollejlari esa, mintaqa xo'jaligining ixtisoslashuvi hamda demografik vaziyatidan kelib chiqqan holda, hududiy tashkil etilgan. Angren shahrida Toshkent viloyati Davlat pedagogika instituti bor³.

Toshkent viloyatlari rekreatsiya resurslariga boy mintaqa sanaladi. Ayniqsa, Chirchiq va Ohangaron vodiylarida so'lim joylar, sihatgoh va dam olish zonalari ko'p. Bunday ob'ektlar Zangiota, Bo'stonliq Ohangaron va Qibray tumanlarida mavjud.

³ 2011/2012 o'quv yilida ushbu oliygoxga qabul to'xtatilgan.

Viloyatda transport tizimining barcha turlari bor. Poytaxt – Toshkentni respublikamizning janubi-gʻarbiy va uzoq shimoliy hududlarini bogʻlovchi temir va avtomobil yoʻllar viloyat hududidan oʻtadi. 2010 yilda 114 km masofada Toshkent (Toʻqimachi) – Angren oraligʻida elektrlashtirilgan yoʻlovchi tashuvchi yoʻnalish ham ishga tushirildi. Toshkent – Bekobod, Toshkent – Angren avtomobil yoʻllari Oʻzbekiston Milliy avtomagistrali Davlat dasturi doirasida taʼmirlanmoqda. Xususan, Fargʻona vodiysini bogʻlovchi Angren – Pop avtomobil yoʻlining bu boradagi ahamiyati katta. Oʻz navbatida, yoʻl boʻyi infratuzilmasi va servis xizmati iqtisodiy rivojlanishda muhim oʻrin tutadi.

2010 yil davomida viloyatda 232 mln. tonnaga yaqin yuk tashilgan. Yuk aylanmasida xususiy yuk tashuvchilarning hissasi katta – 84,3 %. Shu yilda mintaqada 1246 mln. kishi atrofida yoʻlovchi tashilgan. Yuk tashish singari transport xizmatining bu turi ham viloyat doirasida toʻliq avtomobil transporti tomonidan amalga oshirilgan.

Viloyatda qator transport tugun va markazlari shakllangan. Ularga Chirchiq, Bekobod, Angren kabi shaharlar kiradi. SHuningdek, viloyatning siyosiy geografik oʻrnidan kelib chiqqan holda bu yerda qoʻshni davlatlarni bogʻlovchi xalqaro tranzit avto va temir yoʻllar ham bor. Ularning barchasi Toshkentdan turli tomonlarga tarqalgan yoʻllar va katta-kichik shaharlar poytaxt mintaqasi iqtisodiyotining “qon tomiri” va asosiy tayanch nuqtalari sifatida xizmat qiladi.

2.2. Mehnat resurslari.

Toshkent viloyati aholi soni boʻyicha mamlakatimizda Samarqand, Fargʻona viloyatidan keyingi 3-oʻrinda turadi. 1989-2013 yillar oraligʻida uning aholisi yaqin 526 mingga yoki oʻrtacha har yili 23,4 ming kishidanga koʻpayib borgan.

Qishloq tumanlari miqyosida aholi sonining oʻsish suʼrati Parkent, Bekobod, Boʻka, Oqqoʻrgʻonda yuqoriroq⁴. Koʻrilayotgan 20 yildan ortiq davrda ularning aholisi 1,3-1,5 marta koʻpaygan (viloyatda oʻrtacha 123,4 %). Ayni vaqtda

⁴ Yangiyoʻl va Ohangaron shaharlarining 2010 yilda tumanga boʻysinuvchi shaharlar toifasiga oʻtkazilgandan soʻng bu qishloq tumanlari aholisi ham keskin koʻpaydi.

Quyichirchiq va Bo'stonliq tumanlarida demografik o'sish ko'rsatkichlari birmuncha pastroq bo'lgan. SHunga muvofiq aholi zichligi ham o'zgarib turgan. Hozirgi kunda eng yuqori zichlik Zangiota (876 kishi) tumanida kuzatiladi. Viloyat bo'yicha bu ko'rsatkich 170 kishiga teng bo'lgan holda, u Qibray, O'rtachirchiq, Yangiyo'l, Chinoz tumanlarida ham ancha yuqori. Tog' va tog' oldi hududlarni egallagan Bo'stonliq va Ohangaron tumanlarida esa, aholi ancha siyrak joylashgan: mos ravishda, 38 va 38 kishi 1 kv. km ga.

3-jadval

Toshkent viloyati o'rta va yirik shaharlarining aholisi
(ming kishi)

SHaharlar	1979 yil	1989 yil	2011 yil	1979 - 2011 yy. o'sish, %
Angren	105,8	131,0	168,4	159,2
Bekobod	67,5	81,5	87,2	129,2
Olmalik	101,0	113,9	115,6	114,4
Ohangaron	25,9	30,9	32,8	126,6
Chirchiq	131,2	156,4	145,0	110,5
Yangiyo'l	62,8	57,7	65,5	104,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

1989-2013 yillarda o'rta va katta shaharlar orasida Angren aholisi tez sur'atlarda ko'payib borgan. Jadvalda keltirilgan shaharlarning ko'pchiligi og'ir sanoatga ixtisoslashgan. Ma'lumki, bozor munosabatlariga o'tish davrida avvalgi iqtisodiy aloqalarning o'zgarishi tufayli bunday sanoat markazlarida rivojlanish, shu jumladan, demografik o'sish ko'rsatkichlari past bo'lgan. Masalan, Chirchiq shahrining aholisi atigi 10,5 foizga ko'paygan, xolos, Yangiyo'lda o'sish deyarli yo'q darajada.

Viloyat aholisi, respublikamizning boshqa mintaqalarida bo'lgani singari, deyarli faqat uning tabiiy harakati asosida ko'payib bormoqda. SHu o'rinda ta'kidlash lozimki, viloyatda tug'ilish koeffitsienti mamlakatimiz doirasida nisbatan pastroq, o'lim darajasi esa eng yuqori.

Mavjud ma'lumotlarga qaraganda, tug'ilishning umumiy koeffitsienti 2009 yilda 22,7, 2010 yilda 20,8 promille, o'lim, mos holda, 5,7 va 5,8 promille. Tabiiy ko'payish 17,0 va 15,0 promillega yoki 1,70 va 1,50 foizga teng.

Ko'rilayotgan yillarda qishloq tumanlari darajasida tug'ilish Ohangaron, Parkent va Quyichirchiqda, shaharlar orasida esa Yangiyo'lda yuqoriroq, nisbatan past ko'rsatkichlar O'rtachirchiq, Piskent, Qibray tumanlarida hamda Chirchiq shahrida qayd etiladi. O'lim koeffitsienti Yuqorichirchiq, Qibray va Quyichirchiq tumanlarida, shaharlar orasida Angren va Bekoboddan tashqari qolganlarida u ancha yuqori. Masalan, Olmaliqda u 7,6, Yangiyo'lda 7,8, Chirchiqda 8,4, va Ohangaronda 9,6 promille (4-jadval).

Tabiiy ko'payish viloyat bo'yicha 2010 yilda 15,0 ‰ (1,50%), amalda aholining o'sishi esa 1,64 foiz. Bunday farq, o'z navbatida, tashqi migratsiyaning viloyat uchun salbiy natijaga ega ekanligidan darak beradi. Birgina 2009 yilda migratsiya qoldig'i 11,2 ming kishiga barobar bo'lgan. Demak, agar tashqi migratsiya sal'dosi "0" – ga teng bo'lganda, shu yilda viloyat aholisi 32,5 ming emas, 43,7 ming kishini tashkil etgan bo'lar edi. Ko'rinib turibdiki, migratsiya deyarli barcha shahar va qishloq tumanlarida salbiy natijaga ega. CHunonchi, har ming kishiga hisoblaganda, 2009 yilda migratsiya qoldig'i minus 4,3, 2010 yilda minus 4,5 promille bo'lgan.

Umuman olganda, Toshkent viloyati Toshkent shahri bilan birgalikda respublikamiz aholi migratsiyasida eng faol mintaqalar sanaladi. Faqat 1990-1995 yillarda, ya'ni tashqi migratsiyaning eng avj olgan yillarida viloyatda migratsiya saldosi minus 143,8 ming kishini tashkil etgan (respublikamizda 502,3 ming kishi, viloyat ulushi 28,6 %); Angren shahrining o'zi migratsiya tufayli shu yillarda 22,3 ming kishisini yo'qotgan (jami 1989-2006 yillarda 38,3 ming kishi). Eng yuqori ko'rsatkich 1994 yilda minus 6896 kishi, eng oz ko'rsatkich 2006 yilda minus 231 kishi bo'lgan.

Toshkent viloyati respublikamizda nisbatan urbanizatsiyalashgan hudud sanaladi. Uning umumiy darajasi 2013 yilda 50,1 %. Garchi bu raqam mamlakat o'rtacha ko'rsatkichidan va, ayniqsa Farg'ona vodiysi viloyatlaridan ancha past bo'lsada, urbanizatsiyaning real holati mazkur hududda eng yuqori. Sababi, bu yerda shaharlar to'ri juda rivojlangan; viloyatda jami 16 ta shahar va 97 ta shaharchalar mavjud, ularning orasida Chirchiq, Angren, Olmaliq "yuzminglik"

shaharlar hisoblanadi. Bunday uchlik faqat Farg'ona viloyatida bor, xolos. Qolaversa, viloyatning ko'pchilik shahar va shaharchalari yuqori urbanizatsiyalashgan Toshkent aglomeratsiyasi tarkibiga kiradi.

4-jadval

Toshkent viloyati aholisining tabiiy va mexanik harakati
(har ming kishi hisobida, 2010 y.)

SHahar va tumanlar	Aholi tabiiy harakati			Mexanik harakat		
	tug'ilish	o'lim	tabiiy ko'pa-yish	kelgan-lar soni	ketgan-lar soni	migratsiya saldosi
Viloyat bo'yicha	20,8	5,8	15,0	6,1	10,6	-4,5
<i>shaharlar:</i>						
Olmalik	19,5	7,6	11,9	16,6	11,9	4,7
Angren	21,0	6,6	14,4	6,3	8,9	-2,6
Ohangaron	19,2	9,6	9,6	13,0	16,8	-3,8
Bekobod	21,5	6,5	15,0	5,3	9,0	-3,7
Chirchiq	17,0	8,4	8,6	10,3	17,0	-6,7
Yangiyo'l	22,2	7,8	14,4	7,0	9,6	-2,6
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	21,4	5,0	16,6	4,9	8,4	-3,5
Ohangaron	21,3	6,7	14,6	4,6	10,4	-5,8
Bekobod	22,8	4,9	17,9	3,8	6,5	-2,7
Bo'stonliq	21,5	5,6	15,9	5,4	15,1	-9,7
Bo'ka	23,0	4,7	18,3	1,9	6,8	-4,9
Zangiota	22,3	5,1	17,2	2,7	6,0	-3,3
Qibray	22,1	6,1	16,0	18,2	11,7	0,5
Quyichirchiq	22,5	6,1	16,4	6,2	18,9	-12,7
Parkent	22,2	4,3	17,9	0,9	3,4	-2,5
Piskent	19,5	5,0	14,5	6,6	15,1	-8,5
O'rtachirchiq	19,7	5,9	13,8	3,2	7,5	-4,3
Chinoz	20,5	5,3	15,2	3,2	10,4	-7,2
Yuqorichirchiq	21,4	6,2	15,2	5,0	16,6	-11,6
Yangiyo'l	22,0	6,0	16,0	3,0	8,3	-5,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Ayni vaqtda mintaqada kichik va mayda shaharchalar ham ko'p. Ularning soni, 2009 yilda amalga oshirilgan yangicha urbanizatsiya siyosat tufayli yanada ko'paydi. SHu yilda viloyatda jami 79 ta qishloq aholi punktiga shaharcha maqomi berildi. Birgina Bo'stonliq tumanida 15 ta qishloqqa shaharcha "to'ni" kiydirildi. Ular orasida

eng yirigi Xumson - 5,1 ming kishi, Qibray tumanida yangi shaharchalar 14 ta, ularning aholisi 2000-3500 kishi atrofida; 10 ta agroshaharlar Zangiota tumanida, 9 ta Toshkent tumanida paydo bo'ldi. Zangiotada eng kattalari Nazarbek (6775 kishi), Pastdarxon (5762 kishi); Toshkent tumanida A. Navoiy (7716 kishi), SHamsiobod (7499 kishi), Kensoy (7137 kishi) va h.k[21].

Ko'rinib turibdiki, bevosita shaharga tutash qishloq joylarda, ya'ni Qibray va Zangiota tumanlarida yangi shaharchalar ko'proq tashkil etilgan. Demak, Toshkent aglomeratsiyasida shaharlar zichligi, haqiqiy urbanizatsiya darajasi yanada oshgan. SHu bilan birga chekkaroq hududlarda bunday shaharchalar ozroq. Masalan, Yangiyo'l va Parkent tumanlarida ularning soni 3 tadan, Yuqorichirchiq, Piskent va Quyichirchiqda ikkitadan, Oqqo'rg'onida esa atigi bitta (Hamzaobod).

SHunday qilib, bir tomondan 3 ta katta shaharning borligi, ko'pchilik shahar joylarning Toshkent hamda Angren-Olmaliq aglomeratsiyalari doirasida ekanligi, ikkinchi tomondan, chekka hududlarda mayda shaharchalarning joylashganligi Toshkent viloyatining haqiqiy urbanistik holatini belgilab beradi. Yuqorida keltirilgan shaharlardan tashqari viloyat aholi geografiyasida Parkent (50,0 ming), Piskent (34,0 ming), shuningdek, G'azalkent, Bo'ka, Salar, Keles, Chinoz va To'ytepa shaharlarining har birida 20,0 ming kishidan ziyod aholi yashaydi, qolganlari esa kichik va mayda shaharlar sinfiga taalluqli.

Toshkent viloyatida jami 875 ta qishloq aholi manzilgohlari bor, ularning har biriga o'rtacha 1456 kishi to'g'ri keladi. Kattaroq qishloqlar bevosita Toshkent shahriga yaqin joylarda hamda sug'orma dehqonchilik rivojlangan Bo'ka, Bekobod, Oqqo'rg'on, Piskent tumanlarida joylashgan. Viloyatning qishloqlari respublikamizning boshqa mintaqalari qishloq joylariga qaraganda ancha urbanizatsiyalashgan.

Poytaxt viloyati demografik vaziyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning aholisini ko'p millatligidir. Bu yerda tub millat – o'zbeklardan tashqari rus, tatar, koreys, tojik, qirg'iz, qozoq va boshqa millat vakillari ham yashaydi. O'zbeklar jami viloyat aholisining 65,8 foizini, ruslar 6,2 foizni, qozoqlar 13,0 foizni, tojiklar 5,3 foizni tashkil qiladi (2013 y.). Rus va tatarlar asosan

shaharlarda, qozoq va tojiklar ko'proq Bo'stonliq tumanida, qirg'izlar Bo'kada, koreyslar Yuqori va O'rtachirchiq tumanlarida istiqomat qilishadi.

Viloyatda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni 1507,9 ming, iqtisodiyotda band bo'lganlar 1244,9 ming kishi (2000 yilda bu ko'rsatkichlar 1291,1 va 989,8 ming kishi bo'lgan). 2013 yilda jami band aholining 72,0 foizi moddiy ishlab chiqarishda, shu jumladan, sanoatda 20,6 %, qishloq va o'rmon xo'jaligida 27,8 %, transport va aloqada 3,2 %, qurilishda 7,2 %, savdo, umumiy ovqatlanish, moddiy-texnika ta'minotida 8,9 % faoliyat ko'rsatishadi. Nomoddiy ishlab chiqarish sohalari tarkibida ta'lim, madaniyat, san'at, fan va ilmiy tadqiqot ishlarida 10,5 %, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minotda 6,3 % iqtisodiy faol aholi band.

2013 yilda viloyat bo'yicha 87,4 ming yangi ish o'rinlari tashkil qilingan, ularning 72,0 foizi qishloq joylariga to'g'ri keladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yangi ish o'rinlarining asosiy qismi yaratilgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Toshkent viloyatida yuqori malakali va ma'lumotli mehnat resurslari boshqa mintaqalarga qaraganda ko'proq. Bu ham bo'lsa uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omili hisoblanadi.

Aholi bandligi. 2013 yil mobaynida shahar va tumanlardagi mehnat bo'limlariga 24 392 nafar kishi murojaat qildi, shulardan 1 148 nafari maslahat olgan va qolgan 2 3878 nafari esa ish so'rab murojaat qilganlardir. Shularning 23 244 nafari ishga joylashtirildi, 634 nafar mehnatga layoqatli aholiga ishsizlik maqomi berildi[21].

Aholini ish bilan ta'minlash, raqobatni qo'llab-quvvatlash hududiy Dasturi'ga asosan viloyatda 2013 yilda 86 774 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi ko'zda tutilgan bo'lib, amalda 87 428 ta yangi ish o'rinlari yaratildi yoki rejaga nisbatan 100,8% tashkil etdi.

Ish bilan ta'minlangan aholidan 7 925 tasi yangi ishlab chiqarish ob'ektlarini ishga tushirish ishlab turgan korxonalarni qayta qurish va kengaytirish hisobiga, 35 830 tasi kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil qilish hisobiga, 8 504 nafari yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan

tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga, 9 599 tasi yangi fermer xo‘jaliklarini tashkil qilish hisobiga, 17 310 nafari uy mehnatini tashkil qilish (shundan 7127 nafari kasanachilik hisobiga, 3895 tasi pudrat shartnomasi asosida ish bajarish va 6288 tasi oilaviy tadbirkorlikni tashkil qilish) hisobiga, 1778 nafari ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hisobiga va 2 494 nafari bozor infratuzilmasini rivojlantirish hisobiga yangi ish o‘rinlari bilan ta’minlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 yanvardagi “Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o‘rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-3706 sonli Farmoni ijrosi bo‘yicha viloyatda 2013 yilda 1 311 ta ish o‘rinlari yaratish ko‘zda tutilgan bo‘lib, amalda 1 311 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi, ya’ni kasanachilik dastur rejasi 100,0% ga bajarildi[11].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 6 apreldagi «Aholi bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-616 sonli qarori ijrosi yuzasidan 2013 yil yakunlariga ko‘ra quyidagicha bo‘lmoqda:

Boshqa tarmoq yirik korxonalarda 2 001 ta ish o‘rinlari yaratish ko‘zda tutilgan bo‘lib, amalda 2 002 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi, ya’ni kasanachilik dastur rejasi 100,1 %ga va kichik sanoat korxonalarida 3 814 ta ish o‘rinlari yaratish ko‘zda tutilgan bo‘lib, amalda 3 814 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi, ya’ni kasanachilik dastur rejasi 100,0 %ga bajarildi.

Xizmat ko‘rsatish sohasidagi yangi ish o‘rinlari 2013 yilda 26 600 ta yaratilishi belgilangan bo‘lib, amalda 26 657 ta yaratildi yoki dastur rejasi 100,2 % ga ta’minlandi.

III.BOB. TOSHKENT VILOYATINI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA MAVZUNI O'QITISH METODIKASI.

3.1. Toshkent viloyati tabiatining qishloq xo'jalik tarmoqlari ta'sirida ifloslanishi.

Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar muayyan qonuniyatlar asosida rivojlanib boradi. Mazkur qonuniyatlarning buzilishi esa ekologik inqirozga olib keladi. So'nggi yillarda fan va texnikaning jadal taraqqiyoti, insonning tabiatga bo'lgan ta'sirining to'xtovsiz ortib borishi va shu tufayli tabiiy muhitda yuz berayotgan qator salbiy o'zgarishlar inson salomatligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, dunyo ahamiyatiga molik tabiiy-iqlim tasnifidagi muammolar ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarga qaraganda juda qiyinchilik bilan hal etiladi. Respublikamizda bunday tabiiy-iqlim doirasidagi muammolarga Orol dengizining suv sathi pasayishi bilan bog'liq ekologik muammolarni keltirishimiz mumkin. Mazkur ekologik halokat nafaqat O'zbekiston Respublikasi hududini, balki Turkmanistonning shimoli-sharqiy, xususan Toshhovuz viloyati va uning atrofi hamda Qozog'iston Respublikasining janubi-g'arbiy mintaqalaridagi viloyatlar aholisida, ularning ijtimoiy-demografik rivojlanishida bevosita aks etmoqda. SHuningdek, dengizning qurigan yerlaridan ko'tarilayotgan tuz va bir vaqtlar qishloq xo'jaligida ishlatilgan ximikatlarning havoga ko'tarilishi oqibatida qum bo'ronlari hosil bo'lmoqda, bu esa aholining turmush sharoitini og'irlashtirib, ekologik inqirozni vujudga keltirmoqda.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining 2006 yil 5 iyunda chop etilgan ma'ruzasida Yer yuzida paydo bo'ladigan kasalliklarning 24 va yuz beradigan o'limning esa 23 foizi atrof-muhitdagi oldi olinishi mumkin bo'lgan omillarning zararli ta'sirida vujudga kelar ekan⁵. SHu o'rinda keltirish joizki, aholi salomatligi

⁵ BMTning Taraqqiyot dasturi. Salomatlik barcha uchun: O'zbekistonning yangi ming yillikdagi asosiy maqsadi.- T., 2006.- 54 -bet.

juda qiyin va murakkab tiklanadigan resurslardan biri bo'lib, u mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi mezon ham hisoblanadi. Orolbo'yida joylashgan hududlar aholisi salomatligi va u bilan bog'liq muammolar mazkur mintaqalar aholisi demografik vaziyatini belgilamoqda.

Ma'lumki insoniyat tarixi, insonning yerga, atrof muhitga, o'simlik va hayvonot olamiga bo'lgan munosabatlari tarixidan iboratdir. U xo'jalik faoliyati bilan atrof muhitni ifloslab, o'z hayotiga xavf tug'dirmoqda. Ayniqsa tabiatga sanoat ishlab chiqarishining ta'siri juda sezilarlidir. Bu kabi holatdan viloyatimiz ham chetda emas. Xorazm viloyati tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra viloyatda mavjud 60 ta sanoat korxonalaridan atmosfera havosiga 2010 yilda 7785 tonna, 2011 yilda esa 5900 tonna har xil gaz va changlar chiqarilgan. Viloyatimiz hududining kichikligi tabiiy o'sishning yuqoriligi (yiliga har ming kishiga 29,5 kishi), davlat va xususiy korxonalarda ishga yaroqli aholining 52%i bandligidan kelib chiqsak, aholini ish bilan ta'minlash uchun yana o'nlab sanoat korxonalari qurilishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, viloyatdagi bu kabi muammolarni yechimini topishda geografik dunyoqarash muhim ahamiyatga ega. Toshkent viloyatida sanoat korxonalarining joylashishi bilan ularning atrof muhitga ta'siri o'rtasidagi aloqadorlik, sanoat korxonalarini aholi talablari asosida shakllantirish masalalari ko'rib chiqilishi zarur. Viloyat tabiatining o'z-o'zini tiklash darajasi, tabiat unsurlarining antropogen ta'sirga beriluvchanligi, yetakchi tabiat komponentini mumkin darajada sanoat korxonalari ta'siridan xoli qilish maqsadida tadqiqot olib borish viloyatda tabiat va jamiyat o'zaro munosabatlarida ijobiy natija beradi, deb hisoblaymiz.

Mintaqlarda iqtisodiy barqaror o'sishni ta'minlashda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda mustaqiliq yillarida islohotlarni chuqurlatish jarayonida sanoatda sezilarli tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi. Mavjud tabiiy boyliklardan

foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi, energetika va oziq-ovqat havfsizligi ta'minlandi. Sanoatni boshqarishda davlatning roli saqlanib qoldirilgan holda bozor mexanizmlari ishga solinib, bosqichma bosqich rivojlanish amalga oshirilmoqda.

Birinchi bosqichda strategik ahamiyati yuqori bo'lgan gaz, neft, oltin va boshqa boyliklarni qazib olish, ularni qayta ishlash, mashinosozlikni rivojlantirishga katta e'tibor berildi.

Islohatlarning ikkinchi bosqichidan boshlab tarkibiy o'zgarishlar qayta ishlash tarmoqlari tomonga o'zgardi. Bu davrda import o'rnini bosuvchi maxsulotlar ishlab chiqaruvchi sohalarni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni mashinasozlik, yengil, oziq-ovqat va kimyo sanoat tarmoqlariga ko'proq yo'naltirildi.

Sanoatni rivojlantirishning hozirgi bosqichida samarasiz ishlayotgan korxonalarni tugatish, yirik korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiy sektor ulushini oshirish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, boshqaruv tizimini yanada takomillashtirishga qaratilmoqda.

Mustaqilliq yillarida respublikamizning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlovchi yoqilg'i-energetika majmuining sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmidagi ulushi 6,5% dan 21,1%ga o'sdi. Sanoatda nodavlat sektorining ulushi 10,0%dan 70,8%ga, kichik tadbirkorlik ulushi 2,0%dan 16,6%gacha ortdi. Mamlakatimiz eksportida sanoatning ulushi 38,0%dan 50,2%ga o'sdi.

Umuman 1997 yildan beri mamlakat iqtisodiyotida kuzatilayotgan o'sish sur'ati hozirgi davrga kelib yangi pallaga kirmoqda.

Sanoatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida investitsion resurslarining katta qismini uning texnikaviy qurollantirishga yo'naltirildi. Endilikda respublikamiz sanoati ulkan ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo'lgan, barqaror rivojlanayotgan tarmoqqa aylandi.

Respublika prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda vujudga keltirilgan sanoat salohiyatidan hali yetarlicha va to'liq dajada foydalanilmayapti. Ishlab chiqarish quvvatlari, yuqori malakali ishchi kuchi, qulay

iqlim sharoitlari mavjud bo'lgani holda, tayyor sanoat mahsulotining ko'pgina turlari, xom ashyo va materiallar, yetarli darajadagi manfaatdorlikning yo'qligi sababli, ko'pincha xorijdan qo'shimcha transport xarajatlari va valyuta sarflab olib kelinadi..."⁶ Holbuki, respublikamizning aksariyat mintaqalarida, jumladan, Toshkent, Navoyi, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand viloyatlarida, Qoraqolpog'iston Respublikasida xorijiy investitsiyalar yordamida qo'shma korxonalar tashkil etish va mo'l-ko'l mahalliy xom ashyo zahiralardan oqilona foydalanish evaziga sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish imkoniyatlari kattadir. Barcha vilyatlarda qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlash hisobiga yengil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirish mumkin.

Ma'lumki, sanoatni rivojlantirishda foydali qazilmalar asosiy omillardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda mineral xom ashyodan kompleks foydalanishda so'ngi yillarda ma'lum yutuqlarga erishildi. Ammo, mineral xom ashyolarni qazib olish, qayta ishlash va foydalanish jarayonida hamon katta isrofgarchiliklarga yo'l ko'yilmokda. Mutaxassislar hisobiga ko'ra, respublikamizda yiliga 200 mln. tonnadan ziyod tog' jinslari qazib olinadi. Afsuski, bu qimmatbaha rudalarning 150 mln. tonna kubdan ko'proq qismi chiqindi sifatida konlar atrofiga tashlanadi. Respublikamiz tog'-kon sanoati majmuasida 1,25 mlrd. kubometr mikdorda konlarni ochish jarayonida qazib olib tashlanagan tog' jinslari to'plangan.

SHuni ta'kidlash zarurki, mustakillik yillarida atrof muxit muxofazasi sohasida katta tadbirlar amalga oshirilmokda. Jumladan, 1991 yildan buyon atmosferaga chiqarib yuboriladigan zaharli moddalar miqdori 1,7 marta qisqardi. Lekin atrof muhit muhofazasi sohasida amalga oshirish zarur bo'lgan ishlar ko'lami kattaligicha qolmoqda.

Mamlakatimiz mintaqalarida sanoatining baqaror rivojlanishini ta'minlash qator iqtisodiy, tashkiliy va ekologik muammolar yechimini hal etishga bog'liq. Jumladan: mintaqalarining tabiiy va mehnat resurslar salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish; sanoatning zamonaviy tarkibini shakllantirish, tashqi va

⁶ Karimov I.A. Ichki tarmoq va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini yanada kuchaytirish chora tadbirlari to'g'risida // Xalq so'zi, 13 noyabr, 2007 y.

ichki bozorda raqobatbardoshligini oshirish; eski korxonalarni yangi texnika va texnologiyalar bilan jihozlashni, yangi zamonaviy korxonalar qurilishini jadallashtirish; ichki tarmoq va tarmoqlarora kooperatsiya va kasanachilikni rivojlantirish; sanoat tarmoqlarining xududiy tarkibini takomillashtirish; xom ashyo va energiya sig'imini kamaytirish; mahsulotlarning yangi raqobatbardosh, eksportbop turlarini ko'paytirish; ekologik noqulay mintaqalarda atrof muhit muhofazasi sohasida qator tadbirlarni amalga oshirib borishni taqoza qiladi.

3.2. Toshkent viloyati tabiatining sanoat korxonalari ta'sirida o'zgarishi.

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va atrof muhit holati aholi manzilgohlarini markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlashni yuqori bo'lishini taqozo etadi. Biroq, Bekobod, Piskent, Bo'ka, Oqqo'rg'on shaharlari va Olmazor, Do'stobod shaharchalarida aholining 65-75 foizi markazlashgan suv ta'minotiga ega, xolos. Tabiiyki, bunday vaziyat mintaqalarda ijtimoiy muammolarning chuqurlashuviga sabab bo'lmoqda.

Mintaqalarda ekologik vaziyatni saqlab qolish maqsadida yashil maydonlarni kengaytirish, shahar chetida, daryo vodiylarida dam olish va davolanish maskanlarini tashkil etish lozim. Buning uchun viloyatda barcha imkoniyatlar mavjud. Bu esa poytaxt Toshkent shahridan keladigan dam oluvchilarga sharoit yaratish bilan bir qatorda kurort shahar va shaharchalarning shakllanishiga, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishiga zamin hozirlaydi.

Poytaxt-Toshkent shahri bilan chegaradosh hudud, ya'ni Zangiota tumanida migratsiya harakatlari natijasida aholi sonining jadal ortishi kuzatilib, uy-joy, aholi daromadlari va ko'rsatilayotgan xizmatlarda (tibbiy, maishiy, moliyaviy) muammolar tug'ilmokda. Ushbu holat Toshkent shahridagi ijtimoiy- iqtisodiy va ekologik vaziyat hamda aholini ro'yxatga olishni tartibga solish maqsadida amalga oshirilgan ayrim cheklovlar natijasida sodir bo'lmoqda. Xususan, Toshkent shahrida doimiy ruyxatdan o'tishni ta'qiqlab qo'yilishi ijobiy hol biroq, u shahar

atrofi tumanlarida aholining jadal ortishiga va poytaxt mehnat bozorini kuchli ta'sir ostida qolishiga sabab bo'lmoqda.

Mintaqaning ijtimoiy muammolari aksariyat hollarda ekologik sharoit bilan uyg'unlashib, unga xos bo'lgan muammolarni yuzaga keltirmoqda. Mustaqillik yillarida respublika, shu jumladan sanoat shaharlaridagi ekologik vaziyat ikki yo'nalishda, ya'ni sanitariya — gigiena va ishlab chiqarish xo'jalik tizimi yo'nalishi asosida nazorat tahlil ishlari amalga oshirilib, mavjud vaziyat tartibga solinmoqda.

Mintaqada sanitariya-gigiena me'yorlarini belgilash muhim ahamiyatga ega. U inson salomatligiga muvofiq keladigan ko'rsatkichlarni ifodalab, shaharlar uchun xos bo'lgan zararli moddalar, radiatsiya va shovqin ta'sirining yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan yuqori darajasini qamrab oladi.

Tahlil etilayotgan mintaqalarning ekologik vaziyati asosan sanoat ishlab chiqarishi bilan bog'liq holda, ijtimoiy ekologik muammolarga sabab bo'lmoqda. Shu bois, viloyatning Olmaliq, Angren, Ohangaron, Bekobod va Chirchiq shaharlarida ekologik ko'zatuv (monitoring) markazlari tashkil etilib, ular tomonidan shaharlarning ekologik vaziyati muntazam nazorat qilib boriladi. Hududning tabiiy teografik o'rni va unda ishlab chiqarish kuchlarining joylanishi ekologik muammolarni o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishiga imkon beradi. Atrof muhitga ko'rsatilayotgan ta'sir aksariyat hollarda mintaqaviy ko'rinish kasb etib, butun Chirchiq-Ohangaron vodiysiga daxldor bo'ladi.

Toshkent viloyati shaharlarining sanoatlashuv, ixtisoslashuv va hududiy mujassamlashuv darajasi respublikadagi umumiy vaziyatdan birmuncha farq qiladi. Xususan, IES ta'sir doirasida Angren atrofida oltingugurt dioksid (41.2%), uglevodorodlar (21.9 %), qattiq chiqindilar (16.5%), azotoksidi (9.1 %) atmosfera havosini ifloslovchi asosiy moddalar hisoblanadi. Shuningdek, Bekobod, Olmaliq va boshqa sanoati rivojlangan shaharlar atmosfera havosida oltingugurt dioksid, og'ir metallar, Olmaliq, Chirchiq shaharlari va boshqa kimyo sanoati hamda qurilish materiallari ishlab chiqarish markazlarida ammiak, fenol, formaldegid miqdori yuqori.

Tabiiyki, ushbu hol viloyat shaharlarida zonalashtirish tadbirlarini amalga oshirishni taqozo etadi. Zonalashtirish hududni rivojlantirishning shaharsozlik jihatidan rejalashtirilishida shaharsozlikning foydalanish turlarini hamda bu turlardan foydalanishdagi cheklashlarni belgilab olgan holda, uning funksional maqsadga ko'ra bo'linishini nazarda tutadi (O'zbekiston Respublikasi shaharsozlik kodeksining 41-moddasi).

Shaharlarda transport tizimi va qatnovining zichligi, avtomobillar miqdorining ko'pligi, shuningdek ularning texnik holati va yonilg'i (benzin, gaz, solyarka, kerosin)ning sifati atmosfera havosini ifloslovchi asosiy manba hisoblanadi. Harakatdagi manbalardan chiqarilayotgan chiqindilarning 70.4 foizi uglerod oksidi, 13.2 foizi uglevodordlar, 8.2 foizini azot oksidlari tashkil etadi (O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hisoboti).

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston Hidrometeorologiya Markazi tomonidan Toshkent, Angren, Bekobod, Chirchiq kabi shaharlarda statsionar postlar tashkil etilib, ular kerakli jihozlar bilan ta'minlangan. Ushbu markaz tomonidan oxirgi besh yilda olib borilgan kuzatishlar natijasida atmosfera havosi ifloslanishiga sabab bo'ladigan 24 xil ingridientdan 5 tasida PDK (predelno-dopustimaya konsentratsiya) miqdori 1 dan yuqori va ayrim hollarda (3.3 gacha ekanligi aniqlangan); Ular jumlasiga chang, ozon, fenol, azot dioksid va ammiak kiritilib, Angren, Olmaliq hamda barcha sanoat shaharlarida yuqoridagi holat kuzatiladi.

Viloyatning tabiiy-geografik o'rni, shaharlarning hududiy joylashuvi natijasida atmosferaga chiqarilayotgan chiqindilar butun Chirchiq hamda Ohangaron vodiylarida salbiy oqibatlarni vujudga keltirmoqda. Tabiiyki, ushbu hol viloyat shaharlari ekologik vaziyatini kompleks tadqiq etish va shunga mos tadbirlarni belgilash zaruratini keltirib chiqaradi. Shu maqsadda, O'zbekiston Hidrometeorologiya markazi tomonidan respublika bo'yicha atmosfera ifloslanish indeksi kompleks o'zgarish dinamikasi tahlil qilib borilmoqda (O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hisoboti).

Olib borilgan tadqiqotlar viloyat aksariyat shaharlarida AII ko'rsatkichlari me'yordan ortiqiligini ko'rsatadi.

5-жадвал

Toshkent viloyatining sanoat shaharlarida atmosfera ifloslanish indeksi

T.r	Shaharlar	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011
1.	Chirchiq	4.40	3.47	3.35	3.58	3.84	3.38	4.19
2.	Olmalik	4.75	5.52	5.08	4.83	4.67	4.46	4.49
3.	Angren	4.00	3.63	4.20	4.60	5.13	5.38	5.17
4.	Bekobod	2.30	2.30	2.49	2.93	2.91	2.27	2.23

Viloyat qazilma konlarida yo'ldosh holda uchraydigan radiaktiv moddalar axlatxonalarda to'planib, mintqa ekologik vaziyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, Ohangaron tumani hududidagi Yangiobod ruda maydonidan chiqarib tashlangan radiaktiv chiqindilar 50 kv km maydonni egallagan. Uning umumiy miqdori 500 ming kub m bo'lib, hududning nurlanish intensivligi (darajasi) 60 — 200 Mkr/s, ayrim hollarda 1500 mkr/s. ga tengligi aniqlangan. Ayni holat Angren, Qiziltog', Chig'iriq atroflarida ham ijobiy emas. Xususan, Angren ko'mir havzaning yillik ko'mir qazib chiqarish hajmi 10 mln. tonna bo'lib, uning 15 foizi uran va tabiiy birikmalari bilan ifloslangan. Angren shahri atrofidagi axlatxonalar o'zidan radiaktiv nurlar tarqatadi (O'z.R. Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi hisoboti). Shu bilan birga ko'mir ishlatish jarayonida (yoqilganda) turli miqdordagi radionuklidlar bilan atrof muhitni ifloslaydi. Shu o'rinda Angren va Yangi Angren IESlari yillik ko'mir iste'mol sarfi 3009.0 ming tonna, yoqilg'idan foydalanish koeffitsienti esa 33 — 35 foiz ekanligini hisobga olsak, viloyat shaharlari atmosferasiga chiqarilayotgan zaharli moddalar aniq namoyon bo'ladi. Shaharlarda vujudga kelayotgan chiqindixonalar asosan sanoat ishlab chiqarish va uning tarkibi bilan bog'liq bo'lmoqda[6].

Viloyat atmosfera havosini ifloslashda tog'-kon sanoatining o'rni ayniqsa katta. Birgina Olmalik tog' metallurgiya kombinati (OTMK) hissasiga respublika turg'un manbalardan chiqariladigan chiqindilarning 12, shu jumladan oltingugurt

dioksidining 26 foizi to'g'ri keladi. OTMK ochiq turdagi aksionerlik jamiyati (OTAJ) tomonidan 2011 yilda atmosferaga 113.8 ming tonna turli xil chiqindilar chiqarilgan. 2008-2011 yillarda chiqindi miqdori nisbatan kamaygan bo'lsada, ayrim hollarda me'yordan 1.2—1.5 martaga oshib ketgan (O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hisoboti ma'lumotlari). Mavjud vaziyatni oldini olish maqsadida Vazirlar mahkamasining 1999 yil 20 oktyabr 469 sonli qaroriga muvofiq, ma'lum chora — tadbirlar belgilangan. Biroq, hozirgacha aytarli amaliy natijaga erishilmadi. Buning asosiy sababi, korxonaning moliyaviy holati bilan bog'liq bo'lib, mahalliy hokimliklar va tegishli vazirliklar esa moddiy va moliyaviy yordam ko'rsatish, investitsiya jalb etishga panja ortidan qarashmoqda.

Kuzatuvlar va statistik manbalar guvohlik berishicha, viloyat shaharlari doimiy chang, g'uborlar ta'siri ostida bo'ladi. Bu birinchi navbatda hududning tabiiy iqlimiy sharoiti, ikkinchidan esa, atmosferaga chiqarilayotgan noorganik changlar bilan bog'liq bo'lmoqda. Viloyatning qurilish va kimyo sanoati rivojlangan Ohangaron, Chirchiq, Bekobod, Olmaliq va Angren shaharlarida chang miqdori sanitariya-gigiena me'yorlaridan ortib ketmoqda. Ushbu tarmoq hissasiga respublika atmosferasi tarkibidagi ammiak, ftorli vodorod, azot dioksidi va fenolning 3 foizdan ortig'i to'g'ri keladi.

Atmosfera tarkibidagi chang va uni tashkil etuvchi shamollar ta'sirida Chirchiq-Ohangaron vodiysining barcha aholi manzilgohlari, shu jumladan tabiiy lanshaftlarga ham ta'sir ko'rsatadi, ochiq suv havzalarini ifloslaydi, ishlab chiqarish texnika-texnologiyalarining korroziyasini tezlashtirib, ammortizatsiya davrini qisqartiradi.

Ohangaron daryosi havzasida ekologik muhitning buzilishi Ohangaron shahri aholisi orasida kasalliklar turlarining ko'payishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, suv havzalarining sanoat va maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini oqava suvlari bilan ifloslanishi bolalar va kattalar orasida yuqumli kasalliklarning ko'proq tarqalishiga sharoit yaratadi. Olmaliq, Ohangaron, Angren sanitariya -

epidemiologiya stansiyalari (SES) bergan ma'lumotlarga ko'ra, bu shaharlarda yuqori nafas yo'llari, gepatit (A), sil, o'tkir yuqumli oshqozon ichak kasalliklari, dizenteriya kabi kasalliklar ko'proq davriy tus olgan. Olmaliq va Angren shaharlarida yuzaga kelgan nozogeografik vaziyat ham uncha sog'lom emas. Chunonchi, Angren shahrida teri va teri osti kasalliklari, nafas a'zolari, asab tizimi, qon aylanish, ovqat hazm qilish, infeksiya va parazitlar kasalliklar tobora ko'payib bormoqda. Bolalar orasida kasalliklar va o'limning keng tarqalishi ularning ko'proq tug'ma anemiya, yuqumli parazitlar kasalliklar (30 foiz) va nafas olish yo'llari kasalliklari (30 foiz) bilan bog'liq bo'lib, ular mavjud ekologik vaziyatning in'ikosi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shaharlar atmosfera havosini ifloslovchi asosiy modda va birikmalarga aerol, qattiq zarracha, qurum, azot oksidlari, uglerod oksidi, oltingugurt oksidi, xlor, fluor, uglevodlar, metal oksidlari kiritiladi. Ushbu gazlar aralashma, aerol, gazli birikmalar hamda chang ko'rinishida shaharlar havosining ifloslanishiga olib kelmoqda. Masalan, Olmaliq OTMKda umumiy chiqindi miqdori yiliga 113,8 ming tonna bo'lsa, pundan 97,9 ming tonnasi gazli moddalarga to'g'ri keladi. Ammafos kimyo zavodining 1,9 ming tonna chiqindisining 1,8 ming tonnasi gazli birikmalardan iborat.

Shahar havosining ifloslanishiga transport vositalarining ko'payishi ham atmosferaning kimyoviy tarkibini o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, avtomobil vositalarining texnik holati, yonilg'i va moylash materiallarining sifati yuzasidan olib borilayotgan davlat nazorati harakatdagi vositalardan atmosfera chiqarilayotgan chiqindilar miqdorining kamayishiga olib kelmoqda. Xususan, shahar transportidan chiqayotgan zararli gazlar miqdori keyingi besh yilda 6.4 ming tonnadan 5 ming tonnagacha kamaydi.

Ayni paytda korxona tashkilotlardan chiqarilayotgan gazlarni kamaytirish borasida tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada, ko'rilayotgan davrda shaharlar bo'yicha jami chiqindilar miqdori 58.8 ming tonnaga qisqarib, 99.4 ming tonnani tashkil etdi. Biroq, ushbu holat shahar ekologik vaziyatini ayniqsa, sanoat shaharlarini qoniqtirmaydi. Shu bois shahar sanoat korxonalarini to'liq

modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish lozim. Ushbu tadbirlar ayniqsa tog‘-kon, kimyo sanoati uchun o‘ta dolzarbdir. Shu maqsadda 2007 yil 27 iyulda O‘zbekiston Respublikasi prezidentining «2007 — 2011 yillar mobaynida kimyo sanoati korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash dasturi to‘g‘risida» gi qarori qabul qilindi. Qarorda «O‘z kimyosanoat» DAK va manfaatdor vazirliklar, idoralar bilan kelishilgan holda Chirchiq «Elektr kimyosanoat» OAJ da AM-76 ammiakining yirik tonnali agregatini rekonstruksiya qilish va modernizatsiyalash yuzasidan tegishli investitsiya loyihalarini ishlab chiqish ko‘zda tutilgan[15].

Olmalik TMKda ayni shunday tadbirlar amalga oshirilgandan so‘ng atrof muhitga chiqariladigan chiqindilar miqdori sezilarli darajada kamaydi. Holbuki, Olmalik shahar atrof muhitga ko‘rsatilayotgan ta’sirning 90 foizdan ortig‘i OTMK hissasiga to‘g‘ri keladi. Sanoat markazlarida atrof — muhitning ifloslanishi va sanitar epidemiologik holatning keskinlashuvi oqibatida yuzaga kelayotgan ekologik va ijtimoiy -iqtisodiy vaziyat alohida e’tiborga molik.

Tabiiyki, ushbu hol shaharlarda atmosferaga chiqarilayotgan chiqindilar miqdoridagi o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Masalan, Olmalik shahri atmosferasiga chiqarilayotgan chiqindilar tarkibida oltingugurt angidridining miqdori keyingi yillarida 5.7 ming tonnaga, uglerod oksidi esa 1.1 ming tonnaga kamaydi. Shahar havosi asosan oltinguturt dioksidi (92.5 ming t), utlerod oksidi (5.3 ming t.), noorganik chang bilan ifloslanmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, havoni ifloslovchi birikmalar miqdori yildan-yilga kamaysada, ammafos changi va ammiak hajmi biroz ortib bormoqda.

Ohangaron shahri ham ekologik vaziyati murakkablashib borayotgan hududlardan sanaladi. Shahar havosining ifloslanishiga "Ohangaronsement", "Ohangaronshifer", "Santexlit" zavodi, "Yangi Angren" IESi va "Ohangaronranglisement" hissadorlik jamiyati korxonalari, Bekobodda O‘zbekiston Metallurgiya kombinati, Bekobodsement ochiq aksionerlik jamiyati (OAJ), Bekobodsemta’mir OAJ ning ta’siri ko‘proq sezilmoqda.

Umuman olganda, mintaqa sanoat ishlab chiqarishi va uning tarmoq tuzilishi shaharlar atmosfera havosining ifloslanish darajasi hamda uning kimyoviy tarkibini belgilab beradi. Xususan, Ohangaron shahrida, klinker changi, noorganik va sement changlari keng tarqalgan bo'lsa, Olmaliqda-oltinguturt dioksid, uglerod oksidi kabi gazlar, Chirchiqda- ammiak, ozon, Bekobodda-ammiak, ozon, qattiq ftoridlar, Nurobodda- oltingugurt dioksid, azot dioksid bilan zararlanmoqda. Ayni holatni faqat atmosfera havosida emas balki, suv va tuproqning ifloslanishida ham ko'rishimiz mumkin. Toshkent viloyati iqtisodiyotining o'ziga xosligi unda undiruvchi sanoatning rivojlanganligi va boshqa omillar shaharlarda atmosfera havosini ifloslantiruvchi chiqindilarni tutib qolish ko'paygan. Ko'rilayotgan yillarda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha toksik chiqindilarning 97.4-97.5 foizini 4-toifali, 2.6-2.5 foizini 3-toifali xatarli chiqindilar tashkil etgan. Toshkent viloyatida 99.6-99.7 foizi 4 toifali, 0.4-0.3 foiz 3-toifali chiqindilardan iborat bo'ldi (O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hisoboti).

Shaharlarning ekologik muammolari ishlab chiqarish va chiqindilar bilan bog'liq bo'lib, ular foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlash jarayonida atrof muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chiqariladigan qattiq va gazsimon chiqindilar shaharlarning ekologik vaziyatini izdan chiqishiga olib keladi. Viloyat shaharlarining ijtimoiy va ekologik muammolari ularning rivojlanish imkoniyatlarini cheklash bilan bir qatorda, respublikaning o'sish ko'rsatkichlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ushbu muammolarni o'rganish va ularning yechimini aniqlash dolzarb masala hisoblanadi.

3.3 Toshkent iqtisodiy rayoni mavzusini o'qitishda hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va atrof-muxit muxofazasi masalalariga qaratilgan muammoli dars tashkil etishning ahamiyati.

Ta'lim jarayonini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali dars samaradorligini oshirishda, o'quvchilarni faollashtirishda, kutiladigan natijalarga erishishda mashg'ulotlar jarayonida qo'llaniladigan o'quv-didaktik

materiallarning o'z o'rnini bor, ya'ni dars sifati ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan ishlab chiqiladigan innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'quv-didaktik materiallarning qay darajada sifatli tayyorlanganligiga bog'liq. Xitoy faylasufi Konfusiyning «**Aytsang- unutaman, ko'rsatsang-eslab qolaman, o'zim bajarib-anglab yetaman**» degan naqlidan bilish mumkinki, darslarni innovatsion texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan o'quv didaktik materiallardan foydalangan holda ko'rgazmali tarzda olib borish dars samaradorligini oshiradi, o'quv materiallarining tez o'zlashtirilishiga, o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanishiga, rivojlangan davlatlar ta'lim standartlari doirasida zamonaviy ta'lim yutuqlari bilan hamnafas tarzda innovatsion texnologiyalar yordamida chuqurlashgan, ixtisoslashgan ta'lim olishga hamda ishtirokchilarning innovatsion texnologiyalarning ijobiy ko'rsatkichlari yuzasidan dunyoqarashlarining kengayishiga yordam beradi. Dars mashg'ulotlari jarayonida o'tiladigan Toshkent iqtisodiy rayoni hududining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va atrof muhit muxofazasiga oid innovatsion texnologiyalar yordamida tayyorlangan o'quv didaktik materiallardan, masala va mashqlardan samarali foydalanish umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishda o'quvchilar faolligi, ularning ijodkorligi va izlanuvchanligini oshiradi. Shu o'rinda muammoli o'qitish texnologiyasini joriy qilish muhim o'rin tutadi. Muammoli o'qitish mantiqiy fikrlar tadbirlari, hisobga olingan o'rgatish va dars berish usullarini qo'llash qoidalari va o'quvchilarning tadqiqot faoliyatlari qonunlarining tizimidan iborat. Muammoli o'qitish texnologiyasini qo'llashda avval muammoni vujudga keltiriladi. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilimlar va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Muammoli vaziyatning mohiyati o'quvchiga tanish bo'lgan ma'lumotlar, yangi faktlar, hodisalar o'rtasidagi ziddiyatdir.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilardan iborat:

- o'quvchiga notanish faktning mavjud bo'lishi;
- vazifalarni bajarish uchun o'quvchiga beriladigan ko'rsatmalar;
- yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilish;

-ularning shaxsiy manfaatdorligi.

Muammoli o'qitishning mohiyati o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan axborotlarni o'qituvchi tomonidan muammoli mazmunda o'rta tashlanishidan iboratdir.

Buning uchun quyidagi shartlar bajariladi:

-o'quv axborotnomalarining takomilashib borish tizimi yaratiladi;

-muammoli o'qitish amalga oshiriladi;

-axborotning o'quv vazifasiga o'tkazilishi vaqtida uni yechish usulini tanlash imkoniyati ko'zda tutiladi;

-o'quvchining subyektiv mavqei hisobga olinadi;

-o'quvchining bilish maqsadlarini anglab yetishi ko'zda tutiladi;

-qaror qabul qila olishi, masalani hal qilishi;

-natijani ko'ra olishi va qo'lga kiritish uchun o'zlarining ixtiyorida bo'lgan vositalarni baholay bilish imkonlari e'tiborga olinadi.

Muammoli o'qitishga asoslangan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi unda qo'llaniladigan metodlarni asoslab berishni talab qiladi. Bunda ijodiy, qisman ijodiy yoki evristik axborotlarni muammoli bayon qilish asosiy metod hisoblanadi.

Muammoli o'qitish uch tarkibiy qismdan iborat:

-ma'lum, ya'ni berilgan vazifa asosida;

-noma'lum-ularni topish, yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladi;

-avvalgi bilimlar-o'quvchilar tajribasi, egallagan bilimlari asosida.

O'quvchiga noma'lum bo'lgan o'quv muammosi vazifa qilib beriladi va bunda uning bajarilish usullari ham, natijasi ham noma'lum bo'ladi, lekin o'quvchilar o'zlaridagi avval egallangan bilim va ko'nikmalarga asoslanib kutilgan natija yoki yechilish yo'lini izlashga tushishadi. O'quv muammosi bosqichlari muammoli vaziyat yaratish, o'quv muammosini yechish uchun izlanish va muammoning yechilishidan iborat bo'ladi. Shuni ta'kidlash joizki, keyingi vaqtlarda pedagogik texnologiyani ta'lim jarayonida qo'llashning maqbul usul va metodlari ishlab chiqilib, ulardan keng miqyosda foydalanilmoqda, jumladan ushbu

metodlar geografiya darslarida ham keng qo'llanilib kelinmoqda. Quyida ayrim metodlarga tavsif berib o'tamiz:

1. "Klaster" metodi bu - o'quvchilar tomonidan mavzuga oid axborotlarni yoyish va yig'ish orqali amalga oshiriladi; misol tariqasida mavzuga oid hududlarining i'timoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish tarmoqlarini yoki ularning ahamiyatini klasterda ifodalash.

2. "Qora quti"– metodi yordamida o'zlashtirilgan tushunchalarni mustahkamlaydi. Ushbu metod vositasida juftlik asosida quyidagi harakatlar tashkil etiladi: o'quvchilar navbat bilan o'qituvchi rolini bajaradilar;

3. "Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash" metodi yordamida bilimlarni mustahkamlaydi. Ushbu metodning mohiyati: o'quvchilarga qizil va rangli kartochkalar tarqatiladi. O'qituvchi tomonidan berilgan savollarning har biriga o'quvchilar qizil (tasdiq ma'nosini bildiruvchi) yoki yashil (inkor ma'nosini bildiruvchi) rangli kartochkalarni ko'rsatish asosida javob qaytaradilar.

Bunda o'qituvchi tomonidan bir nechta aniq va noaniq savollar beriladi, masalan sanoat korxonalarining hududiy joylashuvi, mashinasozlik zavodlarining viloyatlar boyicha joylashishi va hokozalar ushbu savollarning to'g'ri yoki noto'g'ri berilayotganligini o'quvchilar qizil yoki yashil kartochkalarni ko'rsatish orqali javoblarni aniqlaydilar.

4. "Venn diagrammasi" metodi bu - ikki hil muammo yoki masalani umumiy va o'ziga xos jihatlarini o'rganish maqsadida qo'llaniladi.

5. "Zakovatli zukko" metodi yordamida bilimlarni mustahkamlash. Mashg'ulot jarayonida faol ishtirok etgan o'quvchilar o'z hoxishlariga ko'ra o'qituvchi tomonidan beriladigan savollarga qisqa muddatda javob qaytarishlari kerak.

Bu holat hozirda butun bir ta'lim jarayonini qamrab olmoqdaki, buning asosiy sabablaridan biri mashg'ulotlarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish ko'zlangan aniq natijaga erishishni kafolatlaydi.

Dars mazmunidan kelib chiqqan xolda uning vazifalari ham belgilanadi. Dars vazifalari o'quvchilarga aniq etkazilishi lozim. Ular darsda nimalarni egallashlarini tasavvur qila olsalargina ko'zlangan maqsadga erishishi mumkin.


Dars vazifalari o'quvchilarga qisqa va aniq holda berilishi kerak. Masalan: VIII sinfda "Toshkent iqtisodiy geografik rayoni xo'jaligi" mavzusida dars vazifalari nimalardan iboratligini ko'rib chiqamiz.

Egallangan		
№	Bilimlar	Ko'nikmalar
1	Iqtisodiy rayonning geografik o'rnidagi o'ziga xos xususiyatlar	Toshkent iqtisodiy rayonining iqtisodiy geografik o'rnini aniqlay olish
2	Hududiy ishlab chiqarishi, xalq xo'jaligi tuzilishining asosiy xususiyatlari	Iqtisodiy rayonning hududining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonida yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni tahlil qila olish
3	Toshkent iqtisodiy rayoni hududi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida royl berayotgan ekologik muammolar va ularga qarshi, oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlari.	Toshkent iqtisodiy rayonining hududiy iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini boshqa iqtisodiy rayonlar bilan qiyoslay olish

O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotga qo'llashda ko'nikma va malakalar muhim rol' o'ynaydi. Ko'nikma va malakalarni til bilan tushuntirib bo'lmaydi, ularni amaliy faoliyatda ko'rsatish kerak bo'ladi. Shu sababli inson hayotining asosini faoliyat usullari ko'nikma va malakalar tashkil etib, u o'quvchining muhim sifati sanaladi. Zamonaviy uzluksiz ta'lim tizimi avvalo shaxsning davlat ta'lim standartlari darajasida bilim olishini ta'minlashi lozim.

Darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni e'tiborga olingan holda darsda o'quvchilarning kichik guruhlarda mustaqil ishlashi, debatlar tashkil etish, aqliy hujum, didaktik o'yinlar, taqdimot, o'z-o'zini baholash, tashrif kabilardan foydalanish, masala va mashqlar echishni yo'lga qo'yish o'qituvchining diqqat markazida bo'lmog'i lozim.

«Toshkent iqtisodiy geografik rayoni xo'jaligi, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va atrof-muxit muxofazasi» mavzusida o'tkaziladigan dars mashg'ulotini o'qitishning noan'anaviy usullaridan «Tarmoqlanish usuli» (klester)dan foydalanib o'tish mumkin. Mashg'ulotni boshlashdan avval guruhdagi talabalarni qur'a tashlash yo'li bilan kichik guruhlariga chizmada ko'rsatilgandek bo'lib olish maqsadga muvofiq:



Bunday uslubda dars mashg'uloti o'tilganda ham xuddi o'qitishning an'anaviy usullaridek savol-javoblar yordamida oldingi mashg'ulotda o'tilgan mavzu qisqacha takrorlanib, topshiriqlarning bajarilishi tekshirilib, baholanadi va yangi mavzu bilan bog'lanadi. Shundan keyin yangi mavzu e'lon qilinib, uning qisqacha mazmuni o'qituvchi tomonidan bayon qilinadi va mavzuga oid Toshkent iqtisodiy rayoning iqtisodiy geografik o'rnidagi o'ziga xos xususiyatlarini, respublikaning iqtisodiy rivojlanishidagi o'rnini, xalq xo'jaligini rivojlanganlik strukturasi kichik guruhlarga tarmoqlanish usulidan foydalanib tahlil qilish topshiriladi.

Noan'anaviy usulda "Toshkent iqtisodiy rayoni xo'jaligi, hududining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va atrof-muxit muxofazasi" O'zbekistonni tabiiy geografik rayonlashtirish» mavzusi bo'yicha o'tkazigan dars mashg'ulotining taxminiy rejasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

Mavzu: "Toshkent iqtisodiy rayoni xo'jaligi, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va atrof-muxit muxofazasi"

Maqsad: O'quvchilarga mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishida alohida ahamiyatga ega bo'lgan Toshkent iqtisodiy rayonining xo'jaligi tarmoqlari, hududlararo tafovutlari va hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, natijada

vujudga kelayotgan atrof muxit ekologiyasi tuzilishi haqidagi tushunchalarini yanada rivojlantirish va tuzilishi to'g'risida bilim hosil qilish.

Jihoz: O'zbekistonning iqtisodiy xaritasi, 8-sinf atlası va kontur kartasi, rangli qalamlar, marker, ixtiyoriy ravishda tanlangan kattalikdagi oq qog'oz.

Ishni bajarish tartibi:

1. O'zbekistonning iqtisodiy-geografik rayonlarini joylashishi boyicha iqtisodiy xaritasi bilan tanishib chiqing;

- Xalq xo'jaligi tarmoqlari 1-guruh;
- Ishlab chiqaruvchilar 2-guruh;
- Resurslar istemolchilari 3-guruh;
- Tabiatni muxofaza qilish qo'mitasi 4-guruh.

2. Tarmoqlanish (klester) usulidan foydalanib berilgan termini tariflash (berilgan namunadan foydalanib).

3. O'rganilgan obektlarni xaritadan ko'rsatish (raqib guruhlar savoli asosida).

4. Iqtisodiy rayonning respublikaning industriallashtirishdagi ro'li (Har bir guruh navbat bilan obektlarni doskada tasvirlaydi)

Topshiriq:

1. Sanoatning rivojlangan tarmoqlarini klasterda aks ettirish;
2. Iqtisodiy rayon qishloq xo'jaligining tarmoqlarini iqtisodiy kartadan aniqlab topish, o'rganish va yozuvsiz xaritaga tushirish;
3. Mavzu yuzasidan beshtadan test savol tuzish.

Muammoli o'qitishning vazifasi o'quvchilar tomonidan bilimlar tizimi va aqliy hamda amaliy faoliyatlari usullarini samarali o'zlashtirishga hamkorik qilish, ularda yangi vaziyatda olingan bilimlarni ijodiy qo'llash malakasini hosil qilish, bilish, mustaqil o'qish, izlanish, erkin fikrlash, muloqotda bo'lish, xulosa chiqarish, ekologik tarbiya muammolarini hal qilishdir. Darslarni tashkil etishda muammoli va hamkorlikda o'qitish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, iqtisodiy va mustaqil fikr yuritishga, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, ularda shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda ma'suliyat hissini

shakllantirishni koʻzda tutadi. Muammoli taʼlim jarayonida oʻqituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo oʻquvchilarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, koʻnikma va malakalarni ijodiy oʻzlashtirishi va aqliy faoliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Muammoli taʼlim texnologiyalari oʻquvchilarning bilimlarni oʻzlashtirish darajasini orttirish, koʻnikmalarni malaka darajasiga etkazish maqsadida qoʻllanilib, unda oʻquvchi oʻquv materialini tahlil qiladi, taqqoslaydi, sintezlaydi, maʼlumotlarni umumlashtirib, yangi axborot oladi. Boshqacha aytganda, avval oʻzlashtirgan bilim va koʻnikmalarini yangi vaziyatlarda qoʻllab, bilimlarni chuqurlashtiradi, kengaytiradi.

3.4 Darsni tashkil etish bosqichlari, uni oʻtkazish va natijalarni tahlil qilish.

Yuqorida taʼkidlab oʻtganimizdek, dars jarayonini muammoli tashkil etish oʻquvchilarning bilim olish va oʻrganishiga qiziqishini oshiribgina qolmay, balki ularda mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Oʻqituvchi muammoli vaziyatni shunday tuzishi kerakki, unda oʻquvchi ongida oʻquv materialida unga notanish bilim haqida quyidagi savollar tugʻilsin: “Uni oʻrganish uchun nima qilish kerak?, ushbu muammoni yechish yoʻllari qanday?”. Muammoli vaziyatni hal etuvchi savolga javob nomaʼlum boʻlib, uni aniqlashda oʻquvchi intellektual qiyinchilikni his etadi. Quyida umumtaʼlim maktabi Oʻzbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanining “Toshkent iqtisodiy rayoni” mavzusini oʻqitishda muammoli dars mashgʻulotining bir soatlik dars ishlanmasini koʻrib chiqamiz.

Dars №

Darsning mavzusi: Toshkent iqtisodiy rayoni.

Darsning taʼlimiy maqsadi: Oʻquvchilarga Toshkent iqtisodiy rayonining rayon hosil qiluvchi ixtisoslashgan va ularga xizmat qiluvchi tarmoqlar, ichki ehtiyojlarni qondiruvchi xoʻjalik tarmoqlari ularning oʻziga xos xususiyatlari haqida bilimlar berish va tegishli koʻnikmalar hosil qilish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Oʻquvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, vatanparvarlik, ekologik va nafosat tarbiyasini berish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: O'quvchilarning Toshkent iqtisodiy rayoni sanoat tarmoqlarining turli-tumanligi, qishloq xo'jaligining intensiv rivojlanganligi haqidagi bilimlarini, darslik va xarita ustida mustaqil ishlash, ko'nikmalarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: O'zbekistonning iqtisodiy xaritasi, 8-sinf atlas, «O'zbekistonning iqtisodiy rayonlari» to'g'risidagi jadvali, qog'oz, markerlar.

Darsda foydalaniladigan texnologiya: Muammoli o'qitish texnologiyasi. ("aqliy hujum", "munozarali dars",)

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

II. O'qituvchining kirish so'zi. Bunda o'qituvchi dars mavzusining maqsadi va vazifalari, ilmiy munozara o'tkaziladigan muammolarning umumiy tafsiloti, darsda o'quvchilar guruhi bajaradigan o'quv topshiriqlari bilan tanishtiradi.

III. O'quvchilar faoliyatini munozarali va muammoli masalalarni bajarishga va hal etishga yo'llash;

IV. Yangi mavzuni o'rganish:

- O'quvchilar guruhi o'rtasida o'quv bahsi va munozarani tashkil etish
- «mutaxassislar» tomonidan belgilangan o'quv topshiriqlarini sifatli bajarishga erishish.

Mavzu	Toshkent iqtisodiy rayoni (hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va atrof-muxit muxofazasi masalalari misolida)
Maqsad, vazifalari	Maqsad: Toshkent iqtisodiy rayonining rayon hosil qiluvchi ixtisoslashgan va ularga xizmat qiluvchi tarmoqlar, ichki ehtiyojlarni qondiruvchi xo'jalik tarmoqlari ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida bilimlar berish va tegishli ko'nikmalar hosil qilish. Vazifalar: Iqtisodiy rayonning o'ziga xos xususiyatlari, respublikada tutgan o'rne, eksport-import salohiyati, sanoati, hududining rivojlanishi va tabiatini muhofasi to'g'risida bilim berish.
O'quv jarayonini amalga oshirish	Metod: (Muammoli ta'lim texnologiyasi), kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, test Shakl: Ma'ruza, kichik guruhlarda ishlash Vosita: Videoprojektor, iqtisodiy xarita, 8-sinf atlas-kontur kartasi, tarqatma materiallar Usul: Tushuntirish, tayyor chizma materiallar, kartalar Nazorat: kuzatish, savol-javoblar Baholash: rag'batlantirish, o'zini va guruhni baholash
Kutiladigan	O'qituvchi:

natijalar	O'z oldiga qo'ygan maqsadga erishadi, o'quvchilar faolligini oshiradi, darsga qiziqishni orttiradi, tizimli ishlashga o'rgatadi. Mustaqil ishlash, ularni xotirada saqlash, savol va javob berishga o'rgatadi. O'quvchi: Yakka va jamoa bilan fikrlash, xotirlash, o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushurish, fikrlarni umumlashtirish, yozma va rasm ko'rinishidagi ishlarni ifodalay olishni o'rgatadi.
Kelgusi rejalar	O'qituvchi: Ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'zlashtirish va darslarga tadbiq etish, takomillashtirish, o'z ustida ishlash, jamoadoshlariga o'rgatish, pedagogik mahoratini oshirish. O'quvchi: xarita va kontur karta bilan ishlashni o'rganish, o'z va guruh fikrini tahlil qilish, bir yechimga kelish malakasini oshirish, o'z yutuqlarini takomillashtirish, kamchiliklarni bartaraf etish, fikrlarni umumlashtirishni o'rganish.

Mazkur darsning didaktik maqsadi:

1. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish orqali tahsil olishga va fanga qiziqishlarini orttirish, bilimlarini kengaytirish.
2. O'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini odatiy, tanish va kutilmagan yangi vaziyatlarda qo'llash orqali yangi bilimlarni egallashga erishish.
3. O'quvchilarning bilimidagi mavhum tushunchalarni aniqlash va ularga barham berish, bilim olishga bo'lgan intilishni rivojlantirish.
4. O'quvchilarning nutqini o'stirish, o'z fikrini lo'nda va mantiqan to'g'ri bayon etish, ularni dalillash ko'nikmalarini hosil qilish.

Mazkur mavzu matni tugallangan fikrli quyidagi qismlarga ajratiladi:

1. Iqtisodiy rayonning ixtisoslashgan tarmoqlari;

2. Hudular ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi;

3. Yuzaga kelgan ekologik muammolar.

Shu qismlar bo'yicha o'quvchilarning mustaqil ish topshiriqlari tuziladi:

1- guruh uchun o'quv topshiriqlari:

№	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan materiallar yuzasidan o'quv topshiriqlari.	Topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar.
1.	Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib, quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring:	O'quvchilar guruhi bilan hamkorlikda ishlang.
2.	Toshkent iqtisodiy rayonining iqtisodiy geografik o'rnidagi o'ziga xos xususiyatlar?	O'quvchilar bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting.
3.	Toshkent iqtisodiy rayonining agroiqtisodiyot tizimi asosini nimalar tashkil etadi?	
4.	Toshkent iqtisodiy rayonining geosiyosiy o'rni. Iqtisodiy rayon ekologik vaziyatining yuzaga kelish sabablari va oqibatlar?	

2-guruh uchun o'quv topshiriqlari:

№	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan materiallar yuzasidan o'quv topshiriqlari.	Topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar.
1.	Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib, quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring.	O'quvchilar guruhi bilan hamkorlikda ishlang.
2.	Iqtisodiy rayon tarkibidagi Toshkent viloyatining demografik va iqtisodiy salohiyati?	O'quvchilar bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting
3.	Rayonda ishlab chiqarishni iqtisodiy va hududiy tashkil etishning turli shakllari rivoji?	
4.	Toshkent viloyati sanoatini hududiy tashkil etish yuzasiga kelgan ekologik muammolarni hal etish yo'llari?	

3-guruh uchun o'quv topshiriqlari:

№	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan materiallar yuzasidan o'quv topshiriqlari	Topshiriqlarni bajarish yuzasidan ko'rsatmalar.
1.	Darslikdagi matnni diqqat bilan o'qib, quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring.	O'quvchilar guruhi bilan hamkorlikda ishlang.
2.	Iqtisodiy rayon qishloq xo'jaligi maxsulotlarining hududiy tarkibi?	O'quvchilar bilan o'tkaziladigan savol-
3.	Iqtisodiy rayonning ijtimoiy sohalar geografiyasi?	
4.	Toshkent viloyati xududida qanday rudali, rangli, nodir, qimmatbaho metall konlari hamda kimyoviy	

4.	xom ashyolar mavjud? Iqtisodiy rayonda sanoat tugunlari rivojlanishida vujudga kelgan atrof-muxit muammolari va ularni hal etish chora tadbirlari?	javobda faol ishtirok eting.
----	---	---------------------------------

**O‘zlashtirgan bilimlaringiz asosida darslik va xaritadan foydalanib,
quyidagi jadvalni to‘ldiring.**

Tumanlar	Qora va rangli metallar	Ko‘mir	Oltin, Mis, Marmar	Kapital qo‘yilma lar	Kimyovi y xom ashyolar	Eksport va import

b) «mutaxassislar uchrashuvi» guruhini tashkil eting va mazkur guruhlarda «mutaxassislar» yordamida o‘quv materialining yaxlit holda qayta ishlab chiqilishini amalga oshiring.

V. Yangi mavzu yuzasidan o‘quvchilar o‘rtasida savol-javob bahsi ya’ni “aqliy hujum”ni uyushtirish.

1. Rayon aholi soni va maydonining kattaligi bo‘yicha mamlakatda nechinch o‘rinni egallaydi?

2. Rayon iqtisodiy geografik o‘rnidagi qulayliklardan beshtasini ayting?

3. Iqtisodiy rayon sanoatining yuqori darajada rivojlanganligini ta’minlovchi beshta omilni ayting.

4. Toshkent viloyatidagi ifloslanish darajasi eng yuqori bo‘lgan daryo?

5. Toshkentning 10 ta yirik korxonasi?

6. Ekologik vaziyati og‘ir bo‘lgan iqtisodiy rayonining shaharlari?

VI. O‘quvchilar bilimini test savollari yordamida nazorat qilish va baholash.

1. Toshkent viloyatida sanoati rivojlanishi hajmi bo‘yicha qaysi shahar birinchi o‘rinda turadi?

a) Chirchiq. b) Olmaliq, c) Angren, d) Bekobod

2. Iqtisodiy rayonning qaysi shahri hozirgi kunda havosi eng iflos hisoblanadi?

a) Chirchiq. b) Olmaliq, c) Angren, d) Bekobod

3. Toshkent iqtisodiy rayoni maydoninig kattaligi bo‘yicha nechinch o‘rinda turadi?

a) 3chi b) 5 chi c) 6 chi d) 7chi

4. Iqtisodiy rayonning yalpi sanoat mahsulotining necha foizi og‘ir sanoatga to‘g‘ri keladi?

a) 33% b) 55% c) 65% d) 75%

5. Toshkentning o'pkasi deb qaysi tumanni aytishadi?

- a) Bekobod b) Bo'stonliq c) Olmaliq d) Chirchiq.

6. Toshkent iqtisodiy rayonining eksport tarkibida birinchi o'rinni nima egallaydi?

- a) Qora va rangli metallurgiya b) oziq-ovqat c) paxta d) kimyo sanoati

7. Iqtisodiy rayonda tashqi savdo aylanmasida eksport 37,1%, importining 23,0 % ini tashkil etuvchi shahri qaysi?

- a) Bekobod b) Bo'stonliq c) Olmaliq d) Chirchiq.

8. Toshkent iqtisodiy rayonida hozirda jami nechta qo'shma korxona mavjud?

- a) 375ta b) 385 ta c) 395 ta d) 365 ta.

9. Toshkent iqtisodiy rayoni aholisining mehnat resurslari va malakasining yuqori ekanligini sababi?

- a) Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi b) qishloq xo'jaligining rivojlanishi c) Sanoatlashganligi d) Rekratsiya resurslari yaxshi rivojlanganligi .

10. Toshkent iqtisodiy rayonining eng "yangi" tumani to'g'ri berilgan qator?

- a) Bekobod b) Quyi Chirchiq c) Olmaliq d) O'rta Chirchiq.

VII. Yangi mavzuni qayta ishlash va yakunlash.

VIII. Natijalarni tahlil qilish va baholash.

O'quvchilar har bir nazorat tekshiruvchilaridan baholarini olgach, o'qituvchi baholarini umumlashtirib, o'quvchilar bilan birgalikda qo'yilgan baholarni tahlil qiladi. Har bir o'quvchi egallagan bilimi va ko'nikmalariga tegishli baho olgach, ularning nimalarni qayta ko'rib chiqishlari uqtiriladi. Bulim yoki bob bo'yicha har bir o'quvchi shu tariqa baholanadi. Sinov uyushtirishdan oldin ijobiy guruxdan iborat o'quvchilar maxsus konsultatsiyalar uyushtirishlari va zarur hollarda alohida o'quvchilar bilan shug'ullanishlari ham mumkin.

IX. Uyga vazifa: Yozuvsiz xaritaga iqtisodiy rayonni tushiring va mavzuga oid krossvord tuzing.

O'z o'rtog'ining fikrini sabot va chidam bilan tinglash, bilimini nazorat qilish va uni baholash ko'nikmalari hosil qilinadi, o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlik va yordam vujudga keladi.

Agar geografiyada o'tilayotgan har bir darsda o'rganilayotgan mavzu faqat darslikdagi ma'lumotlar asosida tushuntirib qolinmasdan ommaviy axborot

vositalari (gazeta, jurnal, radio, televideniye)da shu mavzuga doir berib borilayotgan yangiliklardan ham foydalanib borilsa, bu narsa, birinchidan, o'quvchilarning o'tilayotgan mavzuni chuqur va puxta o'zlashtirishlariga; ikkinchidan, ularning shu fanga qiziqishlarining ortishiga; uchinchidan, kundalik voqea va hodisalarga nisbatan kuzatuvchanligining oshishiga yordam beradi. Har bir darsda o'qituvchining ishini yengillatish, vaqtdan unumli foydalanishni ta'minlash, o'quvchilarni darsga to'laroq jalb qilish maqsadida sinflarda geografiyadan o'tilayotgan mavzularga doir ommaviy axborot vositalarida berib borilayotgan ma'lumotlarni to'plab boradigan «Axborot guruhlarini»ni tashkil qilish juda foydalidir.

XULOSA

O'rganishlardan xulosa qilish mumkinki, tadqiqot ob'ektining demografik jarayonlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tobora kamayib, sonidan sifat tomonga burilish davriga kira boshladi. Biroq, mintaqaning ekologik vaziyati mahalliy va xorij investitsiyalarini jalb etish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ekologik muammolarni hal etish yo'llarini takomillashtirishni talab etadi. Chunki, o'sib borayotgan aholining sog'lom turmush tarzini vujudga keltirish, sog'lom, yetuk insonlarni shakllantirish har qanday hududning ustivor yo'nalishlaridan biridir.

Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajasini aniqlab beruvchi yalpi milliy mahsulot, sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarining umumiy hajmi, kapital qo'yilmalar, aholiga pullik hizmat, investitsiya, eksport va import miqdori kabi ko'rsatkichlar tumanlar bo'yicha taqtil qilinganda hududiy tafovutlar mavjud ekanligi aniqlandi. Iqtisodiy hamda transport geografik o'rni qulay tumanlarda yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlar yuqori, maydoni kichik, asosiy transport yo'nalishlaridan chekkaroqda bo'lgan tumanlarda esa past darajaga ega bo'lgan. Sanoat ob'ektlarini mamlakat hududida oqilona joylashtirish – jamiyat taraqqiyotining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, mamlakat va har bir mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishning zaruriy shartidir. Sanoat ishlab chiqarishini

joylashtirish uning hududiy tashkil etish shakllarini ifodalaydi va korxona (firma) larni ma'muriy va iqtisodiy rayonlarda joylashtirishda namoyon bo'ladi.

Istiqlol davrida mintaqalar iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlarni kamaytirish, birinchi navbatda boy tabiiy-iqtisodiy salohiyatga ega hududlar va shaharlarni rivojlantirishga e'tibor qaratildi. Ayrim mintaqalarda sanoat ishlab chiqarishning konsentratsiya darajasi susaydi, rivojlanishi zaif mintaqalarda esa bu ko'rsatkich birmuncha oshdi.

Toshkent viloyati O'zbekistonda qishloq xo'jaligi yuqori darajada rivojlangan hudud hisoblanadi. Bunday holat ko'p jihatdan Toshkent viloyati mehnat resurslari soni va sifat ko'rsatkichlari bilan aloqadordir. Mehnat resurslari sifat ko'rsatkichlari va ularning soni viloyat ishchi kuchini ko'p talab qiluvchi qishloq xo'jalik tarmoqlarini rivojlantirishga imkon bermoqda.

Toshkent viloyati, respublikada aholi turmush darajasining yuqoriligi va ijtimoiy infrastrukturaning nisbatan rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Viloyatda gaz bilan deyarli yahshi ta'minlangan, ammo ulardan foydalanishni to'g'ri yo'lga quyish dolzarb muammo hisoblanadi. Shuningdek aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash muammosini ham hal etish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997.
2. Каримов И. Асосий вазифамиз – ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – Т.: Ўзбекистон, 2010.
3. Karimov I. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Т.: O‘zbekiston, 2011.
4. Асанов Г., Набихонов М., Сафаров И. Ўзбекистоннинг иқтисодий ва ижтимоий жўғрофияси. – Т.: Ўқитувчи, 1994.
5. Ата-Мирзаев О., Тухлиев Н., Узбекистан: природа, население, экономика. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2009.
6. Аҳмедов Э., Сайдаминова З. Ўзбекистон Республикаси. Қисқача маълумотнома. – Т.: Ўзбекистон, 2006.
7. Баратов П. «Ўзбекистон табиий географияси» Т. «Ўқитувчи» 1996.
8. Набиев Э., Қаюмов А. Ўзбекистоннинг иқтисодий салоҳияти. – Т.: Университет, 2000.
9. Солиев А.С., Аҳмедов Э., Махамдалиев Р.Й. ва б. Минтақавий иқтисодиёт. Ўқув қўлланма. – Т.: Университет, 2003.
10. Солиев А., Сафаров И. Иқтисодий ва сиёсий география асослари. – Т.: Талкин, 2003.
11. Солиев А., Назаров М., Қурбонов Ш. Ўзбекистон ҳудудлари ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. – Т.: «MUMTOZ SO’Z», 2010.
12. Солиев А., Қаршибоева Л. Иқтисодий географиянинг назарий ва амалий масалатари-Т., 1999.
13. Tojjeva Z.N. O‘zbekiston aholisi: o‘sishi va joylanishi (1989-2009 уу.). Monografiya. – Т.: «Fan va texnologiya», 2010.
14. Тўхлиев Н. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёти. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008.
15. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-11-жилдлар.- Т.: «Давлат илмий нашриёти». 2002-2005 йиллар.
16. Рўзиев.А. «Марказий Осиё давлатлари иқтисодий ва ижтимоий географияси». Термиз: «Сурхондарё», 2000. – 120 бет.
17. Ғофуров.А. Минтақа иқтисодиёти асослари. Ф.: Фарғона нашриёти, 2006.
18. Тошпулотова.Л.М. Минтақанинг ижтимоий-иқтисодий салоҳияти. Т.: 2004
19. Статистическое обозрение Республики Узбекистан за 2012. Ташкент 2013г.
20. Статистический ежегодник регионов Узбекистана. Госкомстат Узбекистана за 2012год. Ташкент 2013г.
21. www.stat.uz.
22. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)